

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**Filologiya fakulteti o‘zbek filologiyasi bo‘limi
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası**

Tinchlikova Nilufar Abdivafojevna

**ALISHER NAVOIY NASRIDA MUTAFAKKIR VA DONISHMAND
SHAXSLAR TALQINI**

Bitiruv malakaviy ishi

**5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) bakalavriat ta‘lim
yo‘nalishi**

Ilmiy rahbar prof.Dilorom Salohiy

SAMARQAND - 2016

**Alisher Navoiy nomidagi SamDU filologiya fakulteti o'zbek
filologiyasi yo'nalishi o'zbek tili va adabiyoti kafedrasining
11-son yig'ilishi bayonnomasidan**

KO'CHIRMA

2016 yil 26may

Samarqand sh.

Qatnashdilar: Kafedra mudiri prof. D.Salohiy hamda
kafedraning 7 nafar a'zosi, magistrantlar.

K U N T A R T I B I:

3. Bitiruv malakaviy ishlarining dastlabki himoyasi.

ESHITILDI: Mazkur masala bo'yicha kafedra mudiri prof.D.Salohiy ma'lumot berdi. U 2015-2016-o'quv yilida bitiruv malakaviy ishini bajarayotgan talabalardan biri haqida ma'lumot berdi:
- Bitiruvchi kurs talabasi **Tinchlikova Nilufar Abdivafoyevnaning** „Navoiy nasrida mutafakkir va donishmand shaxslar timsoli“ mavzusidagi bitiruv malakaviy ishini bajarmoqda. Uning ilmiy rahbari Prof. D.Salohiy Mazkur ish bo'yicha bitiruvchi talaba hamda ilmiy

rahbarning qisqacha hisobotlarini tinglash, shuningdek mazkur ishga ilmiy taqriz berish uchun mutaxassis belgilash lozim.

Shundan keyin bitiruv malakaviy ishining asosiy mohiyati haqida muxtasar ma'lumot berish uchun so'z navbati Tinchlikova Nilufarga berildi.

Bitiruvchi mavzuning dolzarbligi, o'rganilish darajasi, ilmiy va amaliy ahamiyati, ilmiy va adabiy manbalari haqida ma'lumot berdi, bitiruv ishining asosiy boblarida erishilgan eng muhim natijalar va xulosalarini muxtasar bayon etdi. U bitiruv malakaviy ishi nihoyasiga yetganligi, ilmiy rahbar ko'rigidan o'tganligini ma'lum qildi. Bitiruvchining mazkur axborotini ilmiy rahbar prof. D.Salohiy ham tasdiqladi.

Shundan keyin, bitiruvchiga mavzu yuzasidan savollar berildi. Bitiruvchi barcha savollarga yaxshi javob qaytardi.

Mazkur bitiruv malakaviy ishining mavzusidan kelib chiqqan holda, unga SamDChTI o'qituvchisi Zilola Shukurova domlani taqrizchi sifatida belgilash taklifi kiritildi.

Bu masala bo'yicha kafedra dotsenti f.f.n. I.Sulaymonov va katta o'qituvchi f.f.n. S. Tohirov ham fikr bildirib, mazkur taklifni ma'qulladilar.

Bildirilgan fikr-mulohazalar asosida kafedra majlisida

QAROR QILINDI:

1. Bitiruvchi kurs talabasi **Tinchlikova Nilufar Abdivafoyevnaning „Navoiy nasrida mutafakkir va donishmand shaxslar timsoli“**

mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi tugallangan, mustaqil bajarilgan ish sifatida himoyaga tavsiya etilsin.

1. Ushbu bitiruv malakaviy ishiga SamDChTI o'qituvchisi Zilola Shukurova domlani taqrizchi qilib belgilansin.
2. Ushbu qaror hamda malakaviy bitiruv ishi nusxasini uch kun ichida taqrizchiga yetkazish bitiruvchi zimmasiga yuklatilsin.

Kafedra mudiri

Kotiba

f.f.d. Salohiy D.

Mo'minova D.

REJA:

I. KIRISH:

- mavzuning dolzarbligi;
- o'rganinish tarixi;
- ishning ilmiy yangiligi.

II. ASOSIY QISM:

I BOB Alisher Navoiyning Yunon donishmandlariga munosabatlari .

1.1.Arastu timsolining yaratilishi.

1.2. Suqrot timsolining yorilishi.

II BOB. Adibning Sharq donishmand –mutafakkirlari timsolini yaratishdagi badiiy mahorati.

2.1 Navoiy ijodida ustoz Farididdun Attorning o'rni.

2.2. Shoir salafi Abdurahmon Jomiy shaxsiga munosabati.

III.XULOSA

IV. ADABIYOTLAR RO'YXATI.

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: Buyuk mutafakkir, g'azal mulking sultoni hazrat Alisher Navoiyo'zining nasriy va nazmiy asarlarida, o'lmas dostonlarida umuminsoniy ruh bilan sug'orilgan komil inson, mukammal jamoa va odil hukmdor haqidagi g'oyalarni ilgari surdi. Uning insonparvarlik, ilm-fan va kasb-hunarni egallash, axloq va xulq-odob qoidalari, ta'lim-tarbiya, yuksak insoniy qadriyatlar to'g'risidagi dono fikrlari keyingi davrlarda va hozir ham o'zining tarbiyaviy ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Alisher Navoiyning ma'naviy-axloqiy va ijtimoiy-siyosiy qarashlarikishilarda vatanparvarlik, o'zlikni anglash, odamiylik, halol va pok bo'lish, nafsni tiyish, sabr-bardoshli va yetuk inson bo'lib yetishish kabi fazilatlarni kasb qilishida, yuksak ma'naviyat yengilmas kuch ekanligini chuqur anglab yetishida muhim ahamiyatga ega.

Bundan tashqari hozirgi kunda turli terroristik harakatlar, aqidaparastlik, diniy ekstremizm kabi vayronkor va buzg'unchi g'oyalaryoshlar ongiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Hazrat Navoiy asarlaridagi komil inson g'oyasi va insonparvarlik qadriyatlari yoshlarning dunyoqarashini kengaytirib, ularni

tarbiyalashga, yoshlar ongini yuqorida nomlari keltirilgan zararli g'oyalar ta'siridan saqlashga yordam beradi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi: Bugungi kunda AlisherNavoiy merosiga bo'lgan munosabat yana ham kuchaydi. Prezidentimiz I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 11 chaqiriq 1-sessiyasi 2-yig'ilishida Navoiyni yana ham kengroq o'rganishni, uning asarlarini xalqimizga sodda va tushunarli tarzda yetkazish zarurligini uqtirdilar. Haqiqatan ham, Navoiy shaxsiyati, asarlarining yoshlarimizni ma'naviy yetuk, har jihatdan mukammal qilib tarbiyalashdagi o'rni nihoyatda ahamiyatlidir.

Navoiy umrini xalqining farovonligi va yurt tinchligiga bag'ishladi. U shoir, adabiyotshunos, donishmand, tarixchi, tilshunos, o'zbek adabiy tiliga asos solgan, ilm-fan homiysi, donishmand-qisqasi ulkan san'atkor bo'lib, inson kamoloti, baxt-saodat, ijtimoiy adolat, insonparvarlik to'g'risida ko'plab asarlar yozib qoldirdi. Navoiy ijodiga qiziqish, o'rganish o'z davridan boshlandi.

Navoiyning asarlari turli davrlarda xattotlar tomonidan hurmat bilan ko'chirildi. Yevropaliklar XVI asrlardan boshlab Navoiy asarlari bilan tanisha boshlagan bo'lsada, Navoiy ijodini o'rganish asosan XIX asrda boshlandi.

Fransuz sharqshunosi Katrmer 1841 yilda bosilgan majmuasiga Navoiyning «Muhokamatul-lug'atayn» va «Tarixi muluki Ajam»ni kiritdi.

Navoiy hayoti va ijodi, asarlari matnini o'rganishda Izzat Sulton, she'riyatini o'rganishda Hamid Sulaymon, Shayxzoda, tarjimai holini o'rganishda Aziz Qayumov, Navoiy lirikasi, uslubi masalalari uning ijodi bilan bog'liq turli masalalar bo'yicha Abduqodir Hayitmetov, «Xamsa» bo'yicha T.Jalolov, S.Hasanov, M.Afzalov, S.G'aniyeva, Navoiyning she'riyati, tili bo'yicha A.Rustamov, Aziz Qayumov. "Ishq vodiysi chechaklari", Navoiyning poetikasi bo'yicha Y.Ishoqov va boshqalarning tadqiqotlarini yaratildi.

O'zbek navoiyshunoslari safida N.Mallayev, A.Abdug'afurov, S.Erkinov, B.Valixojayev, R.Vohidov, N.Komilov, I.Haqqulov, S.Olim, N.Jumaxoja kabi yetuk olimlarimiz ham bor.

Tadqiqot maqsadi: Alisher Navoiy ijodi har bir davr uchun eng muhim bo'lgan mutafakkir kishilarning hayoti va ijodi haqidagi ma'lumotlar, ularning hakim, donishmand sifatidagi timsollari ilmiy manba sifatida keng tadqiq etiladi. Navoiy asarlaridagi Yunon donishmandlari va Sharq mutafakkirlarining qarashlari ijtimoiy- falsafiy jihatdan tahlil qilinib, ularni o'rganish, qolaversa, yoshlar dunyoqarashi va tafakkurini shakllantirib, ular ongida inson qadrini, uning barcha ezgu fazilatlarini, ma'nan boy bo'lib yetishish g'oyasini rivojlantirish asosiy maqsad qilib olingan.

Tadqiqot vazifalari: Ilmiy ishning nazariy va amaliy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Navoiyning asarlaridagi Sharq va G'arb tafakkurining o'zaro hamohangligini o'rganish orqali uning insonparvarlik to'g'risidagi falsafiy g'oyalarini tahlil qilish;

- Navoiy merosining yoshlar ma'naviy tarbiyasidagi ahamiyatini ko'rsatib berish;

- Adib asarlaridagi donishmandlarning chuqur ijtimoiy- falsafiy g'oyalarini va ilmiy-nazariy bilimlarining ahamiyatini belgilash.

Ishning ilmiy yangiligi: Ushbu ilmiy tadqiqotimizda Alisher Navoiy asarlaridagi dunyo tamadduniga o'z hissasini qo'shgan buyuk ma'rifat egalarining insonparvarlik g'oyalarini ilmiy jihatdan tahlil qilib, mavjud manbalarni qiyosan tadqiq etishdan iborat.

Asarda keltirilgan donishmandlar hikmatlarning badiiy qimmatini asrlar oshsada o'z qadr-qimmatini yo'qotmay kelayotganini dalillash, Navoiy Yunon donishmandlari haqida mukammal bilimga ega bo'lgani, zamondoshlari va salafklarining ijodiga yuksak ehtirom bilan qaraganligi hamda ularni hech bir jihatdan G'arb faylasuf olimlaridan qolishmasligini badiiy jihatdan yuksak salohiyat bilan asarlarida isbotlab bergan. Ularda ilgari surilgan ezgu g'oyalar bugungi kunimiz uchun ham juda ahamiyatli ekanligini va ularning so'zlarini, hikmatlarini bugungi yosh avlod ongiga singdirish hamda ulardan to'g'ri xulosa chiqarish lozimligini ko'rsatib berishga harakat qildik.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati: BMI da erishilgan yutuqlardan akademik litseylarda, pedagogika yo'nalishidagi kasb- hunar kollejlarida mumtoz adabiyot, adabiyotshunoslik fanlarni o'qitishda foydalanish mumkin.

I bob. Alisher Navoiyning Yunon donishmandlariga munosabati

Sharq Haqni topdi, dunyodan kechib,
G'arb dunyo topdi, Allohdan kechib.
(*Jaloliddin Rumi*)

Dunyo tamadduni tarixiga nazar tashlasak, Sharq va G'arb xalqlari navbatma-navbat hissa qo'shib kelganiga guvoh bo'lamiz. Jumladan, O'rta asrlar madaniyatini yuksaltirishda Sharq yetakchi bo'lib, tashabbusni o'z qo'lida saqlagan bo'lsa, keyingi davrga kelib G'arb oldinga o'tib oldi. Sharqu G'arb adabiy-madaniy aloqalari g'oyat teran va mustahkam ildiz otgani, ustozu shogirdlik uzluksiz davom etganini ko'rishimiz mumkin.

Sharq va G'arb madaniy, adabiy aloqalari juda katta davrni qamrab oluvchi ko'p tarmoqli sohadir. Bu aloqalar quyidagicha davrlashtirilgan:

- 1) eng qadimgi davrlardan ellin madaniyatigacha bo'lgan O'rta dengiz atrofidagi xalqlar madaniy aloqalari;
- 2) III-VI asrlardagi yunon- O'rta Osiyo, yunon-Eron, yunon-hind aloqalari;
- 3) VIII-IX asrlarda yunon- arab aloqalari;
- 4) XI- XII asrlarda Ispaniya orqali amalga oshgan Sharq- G'arb aloqalari;
- 5) XIV- XVIII asrlardagi aloqalar;

- 6) XIX asr madaniy aloqalari;
- 7) XX asr Sharq G'arb aloqalari.

Yevropaning ko'pgina qismida arablar ilm chirog'ini yoqdilar. G'arb Sharqdan savodxonlikni, aniq fanlar va ularni egallash usullarini, dengizda suzish hunarini, harbiy texnikani o'rganib oldilar. Sharq xalqlari g'arblik birodarlariga she'riy san'atni ham in'om etganlar. G'arbda Sharq olimlarining ta'siri shu darajada ediki, hatto, ularning xatolari ham Yevropada uzoq vaqtgacha saqlanib qoldi. Ammo, *faqat Sharq olimlari asarlarigina emas, balki Yunoniston ilmu fani durdonalari ham dastavval, arabchadan qilingan tarjimalar orqali kirib borgan.*

Bu ilmiy manbalar orqali biz minglab millatlar orasidagi qadrimiz, o'rnimizdan voqif bo'lamiz. Buyuk ajdodlarimizni tanish, ular bilan iftixor etish, ularga munosib bo'lishdek shirin va yoqimli tuyg'ular vujudimizni qoplaydi. Ayni paytda insoniyat borliqning yaktan va yakdil bir vujudi, yakona hokimi sifatida o'z-o'zini takomillashtirib borishga, dunyoni obod va farovon qilishga mahkum va mas'ul ekanligini ham anglaydi.

Inson degani nima? U qanday yashamog'i kerak? singari savollarga javob qidirish ming yillar oldin ham kun tartibida turgan. Shul sabab ham ajdodlarimiz insoniylikning o'ziga xos dasturini yaratganlar, nizomini, axloqiy kodeksini ishlab chiqqanlar. Ular shu yo'l bilan jamiyat tartibini qat'iy ilmiy, huquqiy –demokratik asosda o'rnatganlar. Bu jihatdan temuriylar davrining gullab-yashnashini ta'minlagan Mir Alisher Navoiy va uning benazir asarlari hali –hanuzgacha tahsinga sazovordir.

Sharq xalqlariga xos pandona ruh, G'arbgaga xos donishmandlik va har ikkalasiga ham xos falsafiylik Navoiyning ham e'tiborini tortgan. Uning ijodidagi tasavvufga yo'g'rilgan komillik belgilari qalbidagi ezgu niyatlari ro'yobini xalqi timsolida ko'rishni istar edi. Bu istak uning asarlariga ko'chdi.

Navoiyning boshqa xalqlar falsafiy ta'limotlariga munosabatidan bahs yuritilganda, albatta, ma'lum va mashhur bo'lgan donolarga murojaat qilinishi maqsadaga muvofiq bo'ladi.

Dunyo ilm-fani va madaniyati taraqqiyotidan bahs yuritganda ,birinchilardan bo'lib eski yunonliklar tilga olinadi. Yunon tamadduni ma'lum bir zaylda qadim Sharqqa ham o'z ta'sirini o'tkazganligi ilmda qayta-qayta so'zlangan va turli tarzda izohlangan haqiqatlardandir.

Alisher Navoiy va yunon falsafasi masalasi aslida „ Sharq mutasavvif ijodkorlari va yunon falsafasi” deb nomlanishi mumkin bo'lgan ancha yirik mavzuning alohida bir tarmog'i. Chunki ulug' salafлари, xususan, Farididdin Attor, Jalaoliddin Rumiy, Abdurahmon Jomiy dunyoqarashi va ijodiy tajribalarini nazardan chetga surib, Navoiyning yunon falsafasi hamda ayrim vakillariga munosabatini to'g'ri va xolis yoritib bo'lmaydi.¹

Qadimgi grek ilm-fani va madaniyati bashariyat aql-idroki hamda tafakkuri rivojiga beqiyos hissa qo'shganligiga hech shubha yo'q. Shuning uchun yunon olimu allomalari ilmiy-falsafiy merosiga qiziqish hamon davom etib keladi. Suqrot, Luqmoni Hakim,Aflotun, Arastu- bu nomlarga ehtirom hech vaqt shunchaki xotira mulkiga aylanib qolmaydi.

Buni chuqur anglagan Navoiy ham xalqning adolatli jamiyatda baxtli yashashi, farovon hayot kechirishi uchun G'arbu Sharq ilmidan bahramand bo'lib ma'rifatli bo'lishi, donolar hikmatidan ibrat olishini istagan.

Alisher Navoiyning murshidi Abdurahmon Jomiyda ham yunon falsafasiga bo'lgan munosabatni kuzatish mumkin. Masalan, quyidagi baytda:

Hikmati yunoniyon nafs astu payg'omu havo,

Hikmati islomiyon farmudayi payg'ambar ast,-

ya'ni yunonliklarning falsafasi nafs va havoning xabarchisi, musulmonlarning falsafasi esa payg'ambar hukmlarining mahsuli erur, degan so'zlariga Navoiy hech bir yerda urg'u bermagan. Shu bois uning qaysiki ijod namunasini mutolaa qilmaylik, barchasida donolar, hakimlar va mutafakkir kishilarning timsolini muntazam uchratamiz. Ayniqsa, Yunon donishmandlari Arastu, Aristotel, Suqrot, Buqrot, Jolinus timsollari adib uchun g'oyat muhim shaxslar bo'lgan,. Ular

¹Иброхим Хаккул. Навоий ва Юнон фалсафаси. // O'zbek tili va adabiyoti, 2012, 1-son, 3-bet.

Navoiyning „Xamsa” dostonlarida („Hayrat ul- abror”, „Farhod va Shirin”, „Saddi Iskandariy”) hamda „Tarixi anbiyo va hukamo” kabi nasriy asarlarida uchraydi. „Payg‘ambarlar va hakimlar zikri” kitobida hakim-donishmandlardan Navoiy quyidagilarni sanab, ular haqidagi ma’lumotlarni berib o’tadi:

«Tarixi anbiyo va hukamo» ikki qismdan iborat bo‘lib, birinchisida Odam Ato avlodlaridan chiqqan payg‘ambarlar, jumladan Nuh, Ibrohim, Ismoil, Ya‘qub, Yusuf, Dovud, Sulaymon va Iso kabilarning faoliyatidan hikoya qilingan bo‘lsa, ikkinchi qismda Luqmoni Hakim, Fishog‘urs, Suqrot, Aflotun, Aristotilis, Buzurjmehr va boshqa hakim- faylasuflar haqida muxtasar so‘z yuritilgan. Asarning payg‘ambarlar qismida Yusuf a.s. zikrining avvalida o‘zining ijodiy niyatini ifoda etib, «umr omon bersa, turk tili bila... bu qissa nazmin ibtido qilib, intihosiga yetkurgay», -deb ham yozadi. Ammo bu nazmiy qissa yozilmagan.

«*Tarixi anbiyo va hukamo asari*» Alisher Navoiyning payg‘ambarlar va olimlar haqida nihoyatda chuqur bilimga ega ekanligini namoyish etadi. Ulug‘ mutafakkir bu sohadagi bilimlarini bayon etish bilan, o‘tgan buyuk siymolar haqida hikoya qilish, ularning hikmatomuz so‘zlarini keltirish bilan yoshlarni komil inson bo‘lib etishuvlari lozimligini uqtirganday bo‘ladi. Shunisi diqqatga sazovorki, asarda tilga olingan shaxslar- payg‘ambarlar ham, hakim-faylasuflar ham Sharq va G‘arbga mansub ulug‘ siymolardir. Demak, Alisher Navoiy asarda umuminsoniy qadriyatlar haqida so‘zlaydi va ulardan bahramand bo‘lishga da’vat etadi.

Aflotun haqida so‘z boradi. Aflotun hakim Dorob zamonida paydo bo‘lubdur. Suqrotning shogirdi. Iskandar bilan suhbat qurubdur. Uning so‘zlaridan: ”Podshoga may ichish haromdir, chunki u xalq va mulkning qo‘riqchisi. U sharobxo‘r bo‘lsa, xalq parokanda bo‘ladi” deydi.

Shundan so‘ng Aristotolis hakim keltiriladi. U Aflotunning shogirdi, Rum qaysari Iskandarning vaziri edi. Uning so‘zlaridan budurkim : ”Podshoh ulug‘ rudga o‘xshar va atboyi arig‘larkim, ul ruddin ayrildilarkim, ul rud suyig‘a har hol bo‘lsa, arig‘larga hamul holdur. Ul chuchuk bo‘lsa, bu ham chuchuk, ul sof bo‘lsa bu ham sof, ul loy bo‘lsa, bu ham loy..

She'r: Shoh daryo va xalq erur anhor,
 Ikkinining suyig'a bir maza bor.

Bu fikrning sal o'zgartirilgan talqini Navoiyning „Navodir ush-shabob” asarida „Hukamo havli shohning daryog'a mushobahatida va naf'u zararida” deya sarlavha qo'yilgan qit'asida shunday deyilgan:

Hikmat ahli shohni daryog'a tshbeh ettilar-
Kim, ham andin ko'p ziyonlar elga, ham ko'p sud erur.
Gah topar G'avvos bir soatda yuz durri samin,
Gah nahang og'zida yuz hasrat bila nobud erur.

Undan keyin Balinos hakim haqida so'z yuritiladi. Balinos Aristotelning shogirdi bo'lib, Iskandariya minorasini yasab bergan. Uni farang ahli ham e'zozlaydi. Uning so'zlaridan biri: „Podsho eldan nimayiki olsa, uni o'rtacha qilib barqarorlashtirishi lozim. Agar noto'g'ri taqsimlasa, mulk buziladi” deydi.

Chu shah oz olsa bo'lg'ay mulk obod,
Chu ko'p berdi, bo'lur yuz mulk barbod.

Keyin mashhur faylasuf olim Balinosning shogirdi Jolinos (Gelen) ning „Bemorkim ishtahasi bo'lg'ay, ul tandurustdin yaxshiroqdurkim, ishtahasi bo'lmag'aydurkim, anga sihat ortar va munga ranj” ya'ni bemor bo'lgan odamda ishtaha paydo bo'ladi, bu sog'lom odamga qaraganda yaxshidir ma'nosidagi fikri bayon etiladi.

Bayt: Bemori mushtahiyg'a salomat nishonidur,
 Chun tandurust mushtahiy ermas ziyonidir.

Batlimus hakim esa „Qobilning saodati buki uning fahmi bo'ladi. Nekbaxt - baxtiyor ulki, u el holidin pand (ibrat) oladi, badbaxt ulki, uning holidin el pand oladi” deydi.

Ya'ni: Ulus af'olidin sen bo'l barumand,
 Yo'q ulkim, olg'ay af'olingdin el pand.

So'nggi so'z o'rnida No'shiravoni odilning vaziri Buzurgmehrning so'zlari keltiriladi. Bir kuni ustozimdan” Ustoz yigitlikda nima qilish yaxshiyu , qarilikda nima qilish yaxshi?” deb so'radim. Ustozim: “Yigitlikda ilm kasb qilmoq va qarilikda uni amalda qo'llamoq yaxshidir “deb javob berdi.

Demak, «Tarixi anbiyo va hukamo» asari Alisher Navoiyning umumiy tarixni muxtasar tarzda o'zbek tilida yozish niyatining birinchi qismini tashkil etib, unda umumbashariy tarixga bir nazar tashlangan va payg'ambarlar hamda faylasuf hakimlardan ayrimlari to'g'risida fikr yuritilgan.

Navoiy *birinchidan*, tarixiylik nuqtayi nazaridan tarixda o'tgan Yunon donishmandlari haqida aniq ilmiy ma'lumot beradi;

Ikkinchidan, ularning shug'ullangan sohalari va qoldirgan meroslari haqida ham aytib o'tadi;

Uchinchidan, Yunon donishmanadlaridan qolgan ma'naviy tafakkur yutuqlarini keyingi avlodlarga yetkazishga harakat qilgan. Ularning ilmidan Sharq ham foydalanganini asarlarida ko'rsatib o'tgan. Masalan, „Xamsa” dostonlari fikrimizga dalil bo'la oladi. Ularning har birida ilmiy fan kashfiyotlari , ijtimoiy masalalar, davlat boshqaruvi, oilaviy munosabatlar haqida keng mulohazalar berilgan. Navoiy ko'plab donishmandlarni tilga olsa-da, ulardan Suqrot va Arastu timsoliga ko'proq e'tibor qaratadi .

1.1 Navoiy asarlarida Suqrot timsolining yoritilishi

Alisher Navoiyning hakimlar va payg'ambarlar haqida yozgan tarixiy asarlarida hamda „Xamsa“ dostonlari Suqrot va Arastu timsollariga alohida e'tibor qaratilgan. Dastlab Suqrot shaxsi va timsoliga to'xtalamiz. Adib Yunon donishlari ular haqida keng ilmiy ma'lumotlarga ega bo'lgan. Navoiyning maqsadi donolar haqida faqatgina ma'lumot berish bo'lmagan. U oddiy xalqqa ham va maqomi ulardan balandroq bo'lgan kishilarga ham donishmandlar hayotidan ibrat olish, ularga ergashish va ular kabi bo'lishga intilishlarini istagan. Shul sabab ularni biryoqlama emas, ko'pqirrali qilib tasvirlagan.

Yunonistonning buyuk faylasufi, notiq va donishmand olimi Suqrot o'z davrining yetuk namoyondasi bo'lgan. U haqda tarixiy manbalar, ilmiy adabiyotlar, ensiklopediyalarda turli ma'lumotlarni uchratish mumkin. Shu o'rinda savol tug'iladi:

- 1) Suqrot tarixda qanday inson bo'lib o'tgan?
- 2) Navoiy uni qanday tasvirlagan?

*Suqrot*chindan ham olim va donishmand odam ideali hisoblanadi. Lekin uning o'zi, **chinakam donishmandlik o'zining sariqchaqaga arzimasligini anglashdadir, deb** uqtirgandi.

U Yunonistonda, Afinada taxminan eramizdan avvalgi 470- yillarda tug'ilgan. Uning bolaligi va ota-onasi to'g'risida ma'lumot juda kam. Suqrot o'zidan keyin hech qanday asar qoldirmagan. Biroq uning shogirdi, qadimgi yunon faylasufi

Aflotun Suqrot ta'limoti va g'oyalarini ustoz hayotidan olingan lavhalar bilan uyg'unlashtirib, takomillashtirib bergan.

U atrofiga ko'plab iqtidorli talabalarni jamlagan. Bu talabalarning bir qismi (Alkiviad, Kritiy va boshqalar) Afina demokratiyasiga qarshi kayfiyatda bo'lgan. Suqrotni demokratiyaga nisbatan dushmanlikda asossiz ayblashgan. Suqrot ta'limotidagi tanqidiy ruh Afina hukmron doiralarini xavotirga solgan. Buning natijasida uni yoshlarni yo'ldan adashtirganlik, fuqarolik me'yorlarini buzganlikda ayblashgan.

Uning falsafiy ta'limoti to'g'risidagi ma'lumotlarni zamondoshi va shogirdi bo'lgan Ksenofont, Platon, keyinroq Aristotel yozib qoldirgan. Suqrot faqirona kun kechirib, doimo eski liboslarda, oyoq yalang yurardi. Uning turmush tarzi ham, so'zlari va suhbatlari ham odamlarda katta qiziqish uyg'otardi. Faylasuf ko'p vaqtini odam gavjum maydonlarda, xiyobonlarda o'tkazgan. O'zining suhbatidan bahramand bo'lish niyatida yurgan istalgan kishi bilan savol-javob qilgan. Ushbu muloqotlarning uslubi va xarakteri Platonning suhbat tarzida yozilgan asarlarida o'z ifodasini topgan.

Suqrot o'z falsafiy tadqiqotlariga axloqiy masalalarni asos qilib olgan. U olamning kelib chiqishi va tuzilishini o'rganish zaruratini rad etib, bu masalalarni yechishga inson tafakkuri qodir emas deb hisoblagan. Olimning ta'limotiga ko'ra, falsafaning maqsadi o'z-o'zini bilish bo'lib, bu esa chin ezgulikka erishish yo'lidir; ezgulik — bilim yoki donolikdir. Suqrot insonda o'rta miyonalik, mo'tadillik (ya'ni, ehtirolarni jilovlay bilish)ni, dovyuraklik (ya'ni, xavf -xatarni yenga bilish)ni, adolat (ya'ni, ilohiy va insoniy qonun-qoidalariga rioya eta bilish)ni eng asosiy ezgulik va yaxshilik belgisi deb hisoblagan.

Suqrot ta'lim-tarbiya amaliyotidagi har qanday aqidaparastlikni qattiq qoraladi. Ta'limning ma'ruza o'qish shaklidan voz kechib, suhbat va munozaralar orqali haqiqatni izlab topishni asosiy uslubga aylantirdi. U bilim berishning yagona vositasi — ishontirish deb hisoblagan.

Suqrot nomi keyingi davrlar uchun donishmand timsoli bo'lib qolgan. U [G'arb falsafasiga](#) hamda uning asoschilari - [Aflotun](#) va [Arastuga](#) katta ta'sir o'tkazgan, deb hisoblanadi.

Aflotunning ta'kidlashicha, Suqrot butun vaqtini Afina bozorlarida, so'zlarini tinglashga rozi bo'lgan har qanday odam bilan gaplashib o'tkazardi. U, ayniqsa, biron-bir masalada o'zining qat'iy fikriga ega bo'lganlar bilan suhbatlashishni yoqtirardi. Suqrot bunday odamlarga yo'l-yo'lakay savollar berib, ularni gaplashishga majbur qilar, so'ng esa ular bu qadar ishonch bilan fikr yuritayotgan masalada johil ekanliklarini ko'rsatib berardi. Shu bois savollar berish orqali bahs olib borish — uslubi Suqrot uslubi, degan nom oldi.

Eramizdan avvalgi 399- yilda dushmanlar uni Afina yoshlarini buzishda hamda diniy majburiyatlarini mensimaslikda ayblab, sudga chaqiradilar. Bunday ayblovlarga hech kim ishonmasdi. Buni Suqrot ham yaxshi bilardi. Uning sudda o'zini himoya qilib so'zlagan, keyinchalik Aflotun tomonidan yozib olingan nutqi mardona, hazil va istehzoga boy edi. U o'ziga o'lim jazosini tayinlashlarini bilgani holda, o'zini haqiqatni topishga bagishlab, avvalgidek yashayverishi darkorligini bayon etadi.

Qadimgi yunon hakimlaridan Suqrotni yunon xudolarini inkor etgani uchun zahar ichib o'lishga hukm etdilar.

Suqrot o'zining so'nggi kunini ham do'stlari bilan jonning abadiyligi to'grisidagi masalani muhokama qilgan holda hibsda o'tkazdi. U o'ziga berilgan, og'u solingan idishni dadil qo'lga olib, aslo ikkilanmay, sipqarib yuboradi. Do'stlari ko'z yosh qilishadi, ammo Suqrot ulardan sukut saqlashni iltimos qiladi. Shogirdlari yig'lab undan:

— Aziz ustod, sizni qayerga dafn etaylik? - deb so'radilar. Suqrot kulib:

— Qaysi yerni xohlasangiz, jasadimni o'sha yerga ko'ming, lekin men jasadim birla bo'lmayman, doimo sizlar bilan bir bo'laman, qalbingizda yashayman,— dedi.

Yunon donishmandlaridan bo'lmish Suqrot tarixiy shaxs bo'libgina qolmasadan, u falsafa, mantiq fanlarida ham yetakchi olim, ulug' donishmand, bugungi kun talabi bilan aytsak buyuk davlat arbobi ham bo'lgan. U insonlarni adolatli davlatda, huquqlari himoya qilingan holda erkin va baxtli hayot kechirishlarini istagan. Shu bois, uning hikmatlarga boy hayoti o'zidan keyingi boshqa olimlarga ham ibrat bo'lgan.

Navoiy Suqrot hakim „Tarixi anbiyo va hukamo“ asarida hamdac, „Xamsa“ dostonlarida hamda da tilga oladi. „Tarixi anbiyo va hukamo“ asarida hakimga shunday ta'rif beriladi:

„*Suqrot hakim* Buqrotisning shogirdidir va Humoy binti Bahman zamonida erdi. Va aning so'zlaridindurkim, nodong'a tavoze' qilmoq hanzalg'a suv bermakdurkim, necha ko'p ichsa, talxroq bo'lur. Sa'y ishim, o'z yerinda bo'lmag'ay, qilur ishda kohilliddin yomonroqdur va dushman bila mashvarat qilib va dushmanlig'in bilsa bo'lurkim, ne poyadadur.

Sh e ' r:

Cheksa dushman sening salohingga til,

Mahzi afsod bo'lg'usidur bil.²”

Suqrot Buqrotning shogirdi bo'lgan. Humoy zamonasida yashagan. Asarda Suqrot hakim haqida fikr yuritilib, uning quyidagi hikmatli so'zlari keltiriladi: „Nodonga tavoze' qilmoq hanzalga suv bermakdurki, qancha ko'p ichsa, shuncha talhroq bo'lur “ ya'ni nodonga tavoze' qilmoq, hanzal, ya'ni itqovunga suv bermoq kabidir. Unga qancha ko'p suv berilsa, shuncha taxirlashib boradi -deydi.

Bu bilan shoir mamlakatda ko'proq iste'dodli insonlarga e'tibor berishlikni nazarda tutadi.

Uning hikmatomuz gaplaridan keltiriladi. Ya'ni nodonga qancha marhamat ko'rsatilsa, u shunchalik havolanib ketadi, deyiladi. Bu yerda yaxshilikni munosib insonga qilish ibрати berilgan. Shuningdek, hech qachon dushmanni do'st deb bilmaslik haqida so'z boradi. Baytdagi ma'noga e'tibor qaratsak unda agar

²Alisher Navoiy. Tarixi anbiyo va hukamo .www.ziyouz.com kutubxonasi 45-bet.

dushman sening biror ishning yaxshi tomonga o'zgarishini bilsa, faqat uning teskarisi bo'lishini xohlaydi deyilgan. Ya'ni dushmanga sir boy bermaslik haqida aytilgan . Bu so'zlar har qanaday kishiga ibrat bo'la oladi.

Navoiy „Tarixi anbiyo va hukamo” asarida barcha olimlar, jumladan Suqrot shaxsi haqidagi ma'lumotlarni hayotiy, izchil va aniq ma'lumotlarga tayangan holda asosli beradi. Asardagi mulohazalar badiiy to'qimadan holi bo'lib, ular olimlar faoliyati, shug'ullangan mashg'ulotlari va qoldirgan meroslari haqida ma'lumot berish bilan birga ularni o'quvchi u oddiy xalq vakilimi yo ziyoli bo'lishidan qat'iy nazardonishmandlar haqida bilishga, o'qib-izlanishga chorlaydi. Navoiy Payg'ambarlar va hakimlar tarixini yozishda uzoq yurt donishlarini kiritishdan maqsadi ham shu bo'lgan .

Xamsa''ning ba'zi o'rinlarida yunon olimlari Arastu, Aflotun, Porfiriy kabilar afsonaviy, badiiy to'qima shaxslarga aylantirilgan. Xususan, Suqrot timsolini „Farhod va Shirin “ dostonida uchratamiz.

„Farhod va Shirin “ dostonida Suqrot obrazi Farhodga taqdir yo'lidagi tadbir haqida bayon qilgan donishmand timsolida gavdalanadi. Farhodn Yunon mamlakatiga borishga azm etib, Xoqon Mulkoro bilan kengashib, Farhodning maqsadlariga yo'l topish uchun Xoqonning Yunonga qo'shin surgani va u yerda mamlakat donishmandlari bilan birgalikda Suhaylo hakim g'origa va barchalari Suqrot g'origa yetgach, yo'lda donishmandlar to'dasini uchratadi. Ulardan Suqrot hakim haqida so'raydi:

*Erur Yunonda Suqroti zamon ul,
Tutub Suqrotdek g'ori nihon ul.*

*Tariqi inzivodur virdi oning,
Hunarda borchamiz shogirdi oning.*

*Bilur ul, ahli hikmatning panohi,
Bu ishning borchahvolin kamohi, deya unga ta'rif berishadi..* Ular bu odam mamlakatda tengi bo'lmagan bir hakimdir, deb javob beradi. Yoshi besh yuzdan

oshiy ketgan.Odamlar orasida u Suhaylo hakim nomi bilan mashhur.U bizning Yunonda Suqrotga o'xshab ketadi.U ham g'orda Suqrot kabi yashaydi, deydi.
So'ng Farhod Suqrot bilan uchrashadi:

Quchub shahzodani ko'nglin qilib shod,

Dedi: «Sen, senki oting keldi Farhod».

Suhaylo tilidan : Jomosp³ning o'limidan keyin hakimlar uning aytganlarini yozib qoldirishlaridan menga ayonki, ming yildan so'ng Chindan Yunonga bir Farhod degan yigit keladi. U ancha qiyinchiliklardan so'ng, Iskandar tilsimini ochadi. Keyin esa Suqrotni ko'rishi va Iskandar oynasi kifoyadir, – deydi.

Suqrot hakim bilan uchrashganlari va uni topishda jahonni ko'rsatuvchi jomidan foydalanganlari ma'lum qilinadi.Shoir bu o'rinda Suqrot tilidan Farhodga qarata garchi hayoting Nuh umricha bo'lsa ham o'lim barhaq, deydi. Farhod dunyoni ko'rsatuvchi ko'zgu- Oyinayi Iskandariyni topgach, unda yashiringan tilsim siriga qiziqadi.Biroq bu sirni ochish juda qiyin edi.Ko'zgu sirini bilaman degan odam Yunon tarafiga borishi kerak.Yunon mamlakati g'oyat qutlug' o'lka bo'lib, ilmu hikmat bilan zebu ziynat topgan. U yerga yetish yo'lida uch manzillik yo'l bo'lib, har manzilda uch ofatga duch keladi.

Avvalgi manzilda shunday bir manzilda shunday bir ajdaho borki, go'yo uni Tangri o'z qahridan bir balo qilib yaratgan. Ikkinchi manzilda bir Ahraman degan dev bo'lib, odamlarga bedodlik, ofat yetkazish uning uchun odat va hunardir.

Uchinchi manzilda ajoyib qilib qurilgan bir tilsim bor. Bu uch manzildan o'ta olgan inson to'rtinchi manzilda bir toqqa duch keladi.Unda bir qorong'u g'or bo'lib, g'orda dunyoda tengi yo'q Suqrot hakim bo'ladi.

Shu o'rinda u haqda ta'rif beriladi: Uni Suqrot demasdan zamonasining Buqroti desa ham bo'ladi.U shunday aqlli, shunday bilimdonki, o'lmagan bo'lsa, oldiga borgan odamning har qanday qiyinchiligidagi tugunlarni yechib bera oladi. Agar u

³Jomosp – qadimgi Eronning afsonaviy donishmandi va munajjimi. Uni Luqmonning shogirdi deb biladilar. Kelajak voqealaridan xabar qiluvchi «Jomospnoma» nomli kitobni shu donishmandga nisbat beradilar. Navoiy Suqrot g'origa ketayotganlarga Suhaylo «Jomosp»dan Farhodga yulduzi baland ,degan xushxabar yetkazganini bayon qiladi.

tirik bo'lmasa, borgan kishi nimayiki iltimos qilmoqchi bo'lsa, uning ruhiga sig'insa, umid ipidagi tugunlar, albatta yechiladi deyiladi.

Suqrot timsolini biz yana „**Saddi Iskandariy**”**dostonida** Iskandarning olimlar davrasida bo'lgandagi holatida uchratamiz.. Dostonda Suqrot „**Hakimi ilohiy**” — ilohiy hakim deya ta'riflanadi.

Hakimi ilohiyg'a surdi nafas,

Ki: «Sendin erur bizga bu multamas,

Kim andoqki yetti so'zungdin navo,

Bu sayr ichra sen bo'lg'asen peshvo.

Bo'lurbiz bori donishing payravi

Ki, fahming biyik keldi, poying qavi».

Shoh Iskandar ya'juj va majujlardan himoya qiluvchi metal va tosh qorishmasidan mudofaa devori (sadd) qurishga farmon beradi. Shu yo'l bilan u tinch aholini bosqinchilardan himoya qiladi. Dostonning nomi shu lavhadan olingan. Navoiy bu masalaga alohida e'tibor bergan: uning fikricha, hukmdorning asosiy vazifalaridan biri- o'z davlati sarhadlarining ishonchli himoyasini ta'minlashdan iborat.

Bu muhim ishni adog'iga yetkazgandan keyin Iskandar dengiz sir-asrorlarini o'rganishga kirishadi. Uch ming kemadan ulkan flot tayyorlaydilar. Ekspeditsiyaga rahbar etib Suqrot tayinlanadi, chunki u boshqa olimlar orasida dengiz masalalarini yaxshi bilgan.⁴

Iskandar Suqrotdan dengiz suvining sirini so'raganda, u shunday javob qaytaradi: yer yuzida suv paydo bo'ldiyu, barcha joylarda u birday taqsimlandi, tog'u daryolarda ham. Ammo nega u hamma joyni bosmagan deb savol bergani va

⁴Бертельс Е.Э. Навоий. Монография. / Таржимон Мирзаев И.К. -Т.: Tafakkur qanoti, 2015. 271-бет.

Suqroti hakimning bu hikmat ilohiydir, uni faqat Haq taolo bilishi, buni xirad ahli- donishmandlar bir soʻz deyishga ojiz, deya javob bergani aytilgan.

Fikrimizni xulosalaydigan boʻlsak, dostonlarda Suqrot donishmand kishi sifatida bdiy toʻqimaga aylantirilgan obraz sifatida tasvirlanadi.

Tarixiy asarlarda esa u haqda hayotiy haqiqatga yaqin qilib berilgan.

Donishmandlar aqlu- idroki, zehni, dunyoga teran nigoh bilan qaraganlari bois, ularning hayotida ibratli voqealar koʻp sodir boʻlgan. Shu bois, ularning hayotini „hikmatli umr“ deyish mumkin.

Suqrot hakim aytadi:

— Agar birovni oʻzingizga doʻst qilib olmoqchi boʻlsangiz, avval, uning tarjimai holini shunday oʻrganing!—Birinchidan, u kishi yoshlik vaqtida oʻz ota-onasiga qanday muomalada boʻlgan? Ikkinchidan, qarindosh va oʻrtoqlari uning muomalasidan rozi boʻlganmi? Uchinchidan, u odam yoshlik davrini kechirgandan keyin goʻzal muomalasi bilan hammaning muhabbatini oʻziga jalb etganmi yoki bad muomala egasi boʻlib, hammani oʻzidan bezdirganmi? Toʻrtinchidan, birov unga yaxshilik qilgan boʻlsa, u odamdan minnatdor boʻlganmi? Unga ham yaxshilik qilganmi? Beshinchidan — kayf-safo, aysh-ishratga berilganmi? Faqat oʻz manfaatinigina koʻzlaydiganmi, yoʻqmi?

Bayt:

Chin, samimiy doʻstki topmoqlik qiyin,
Gar topolsang, surma qil koʻzga izini.⁵

Donishmand Suqrot :

— Yaxshi soʻz koʻngilni, xushxat koʻzni yoritadi. Doim davom etgan oz, davomi qisqa boʻlgan koʻpdan yaxshiroqdir, - deb aytgan.

* *

Suqrot hakim aytadi:

— Hunardan yaxshiroq, ilmdan ulugʻroq narsa yoʻq. Sharmu -hayodan yaxshiroq

⁵Oz-oz oʻrganib dono boʻlur. -Toshkent :Gʻ afur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1982. 6-bet. www.ziyouz.com kutubxonasi.

bezak, zebu ziynat yo‘q, badfe’llikdan yomonroq dushman yo‘qdir.

* * *

Mashhur donishmand Suqrot hakim aytadi:

— Oqil, dono odamlar halol kasb bilan shug‘ullanib, shu kasblaridan topgan mol-dunyolaridan muhtojlarga in’om-ehson qiladilar. Achchig‘langan vaqtlarida tillarini yomon so‘zlardan, qo‘llarini odamlarga ozor berishdan saqlaydilar. Agar bir odam sening aybingni yuzingga solsa, kamchiliklaringni tanqid qilsa, uni do‘st deb bil, go‘zal xulq-atvorli bo‘lishga, yaramas ishlardan saqlanishga g‘ayrat qil.

Bayt:

Har kim o‘z aybini bilsa marddir,
Boshidan aylangil ahli darddir.

Suqrot hakim aytadi:

Go‘zal tadbir ishlatib, dushmanni do‘st etish, nodon va johil odamni ta’lim va tarbiya qilib, donolar davrasiga, badaxloq fosiqlarni pand, nasihat bilan isloh etib, yaxshilar qatoriga qo‘shish eng afzal amallardan sanaladi.

* * *

Suqrot hakim aytadi:

— Nodon odam o‘z nodonligini sukut etib bildirmasa, shuning o‘zi bilan ham uni oqillardan hisoblash mumkindir. Lekin nodonlik bilan sukutning ikkisi bir odamda jam bo‘lmaydi.

* *

Suqrot hakim aytadi:

— Ko‘ngilning ikki ofati bor. Birisi: o‘tgan ishga qayg‘urish, ikkinchisi: kelgusi ishni o‘ylab g‘am-alam chekishdir.

* * *

Suqrot hakim aytadi:

— Molu dunyo orttirishga ko‘p mayl qilma, chunki ko‘p mayl qilganga uning xiyonati ko‘proq bo‘ladi. U bir vaqt birovni semirtirsa, bir vaqt yig‘latadi.

Boshqalar yonida birovga ayblarini aytib nasihat qilish —uni odamlar orasida uyaltirish demakdir. Shuning uchun holi joyda nasihat qilish kerak.

Suqrot hakim insonlar orasidagi do'stlikni ulug'lab shunday degan:

— Do'stingga yo'liqqan vaqtingda egilib, ochiq yuz bilan ko'rish, yaxshi so'z bilan uning ko'nglini ko'tar. Do'stlikning boshlanishi madh-sano bilandir.

Suqrot hakim aytadi:

Halol mehnat, muhtojlarga yordam, g'azab vaqtida yomon so'zlardan tilni, birovni ranjitishdan qo'lni tiyish, kamchilikni bitirib, yomon xulq-atvorni tuzatib, go'zal axloq egasi bo'lish — eng zo'r fazilatdir.

Donishmandlarning tajribadan o'tkazgan to'rt hikmati bor:

1. Quvvat va toqatingiz yetmagan ishga kirishib o'zingizga zahmat va mashaqqat orttirmang.
2. O'zingizga va boshqalarga manfaat yetkizmaydigan ish bilan mashg'ul bo'lib umringizni zoye o'tkazmang.
3. Ikki yuzli, munofiqlarning so'zlariga aldanmang.
4. Molu dunyongiz va martabangiz bilan g'ururlanmang.

Bu hikmatlar insonga ibrat bo'lib, uni yaxshilik sari yetaklashga xizmat qiladi.

1.2. Navoiyning nasriy asarlarida Arastu timsolining yoritilishi.

Arastu Yunonistonda yashab o'tgan faylasuf olimlardan biri hisoblanadi. U haqda tarixda ham ma'lumotlar uchraydi. Alisher Navoiyning bir necha nasriy asarlarida Arastu tilga olinadi. Daslab uning shaxsiyati haqidagi ma'lumotlarga to'xtalamiz.

Arastu haqida „Falsafa qisqacha izohli lug'ati“da quyidagicha ma'lumot beriladi. Unda Arastu (Aristotel) – qadimgi yunon faylasufi va qomusiy olimi (384-322). U Frakiyadagi Stragira shahrida tavallud topgan. 17 yoshida Aflotun (Platon) tashkil qilgan akademiyaga kirib, unda yigirma yil davomida tahsil oladi. Keyinchalik olim Iskandar Zulqarnayn (Aleksandr Makedonskiy) ning tarbiyasi bilan mashg'ul bo'ladi. U Afina shahrida litsey tashkil qiladi. Bu litsey peripatetik- sayr qiluvchi faylasuflar maktabi deb ataladi. Arastu ko'plab asarlar yozgan. Ularning anchagina qismi bizgacha yetib kelgan. „Topika“, „Metafizika“, „Poetika“, „Ritorika“, „Jon to'g'risida“, „Organon“, „Nikomax etikasi“, „Evdem etikasi“, „Siyosat“ va boshqa asarlar uning qalamiga mansubdir⁶.

Bu asarlar falsafa, etika, estetika, psixologiya, mantiq ilmi, tabiatshunoslik, tarix va siyosatga bag'ishlangandir. Shuni ta'kidlash lozimki, Arastu garchi Aflotunning shogirdi bo'lib, uning g'oyalaridan bahramand bo'lsa-da, biroq uning ta'limoti va

⁶Фалсафа кискач аизохли лугат/ Муаллифлар : М.Н.Абдуллаева,М.Абдурашидов,У.Абилов ва бошк.: Масьул мухаррир : А.Жалолов.-Т.: <Шарк>,2004.-384бет, 39-41-бет.

„mutlaq g’oya”sini qattiq tanqid ostiga oladi. Quyidagi ibora Arastuga mansubdir: „Aflotun do’stim bo’lsaham haqiqat menga qadrliroqdir”.

Arastu eng , avvalo, etikani maxsus fan tarmog’i deb qaraydi. U kishilarga yaxshi fazilatlarni egallash yo’llarini ko’rsata olish kerak.

Arastu etikasining muhim xususiyati shundan iboratki, axloq siyosat va ijtimoiy hayot bilan chambarchas bog’liqligini ko’rsatadi. Olim eng yaxshi fazilatlarga mo’tadillik, do’stlik, shijoatkorlik, adolat va baxtga intilish kabilarni kiritadi. Bularning ichida eng mukammali adolat hisoblanadi. Mutafakkirning fikricha , adolat bu qonunlarga to’g’ri keladigan xatti-harakatdir. Arastuning ta’limoti , falsafiy fikr rivojiga katta ta’sir ko’rsatdi. Ayniqsa u Sharq, xususan , Markaziy Osiyo mutafakkirlari, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Tusiy, Ulug’bek, Navoiy, Jomiy, Koshifiy va boshqalarning tabiiy-ilmiy va ijtimoiy- falsafiy qarashlarining shakllanishiga ulkan ta’sir ko’rsatdi.

Miloddan avvalgi 343 yildan boshlab Arastu Iskandar Maqduniy (Aleksandr Makedonskiy)ga murabbiylik qila boshlaydi. Iskandar Maqduniy hukmdorlik taxtiga o’tirgach, o’z ustozini va do’stiga atab haykal barpo etadi. Bu haykalning poyida shunday yozuvlar bor edi: «Iskandar ushbu yodgorlikni Nikomaxning o’g’li, buyuk donishmand va avliyo Arastu xotirasiga o’rnatdi».

Sharq asotirlarida yozilishicha, bir kuni Iskandar Zulqarnayndan so’raydilar:

— Ne sababdan ustozing Arastuni otang Sulton Faylaqus (Filipp)dan ham a’lo ko’rasan?

Shoh Iskandar shunday javob qaytaradi:

— Otam mening jismimni tarbiyalab, osmondan yerga olib tushdi. Ustozim Arastu esa mening ruhimni tarbiya qilib, yerdan osmon qadar yuksaltirdi.

Rum qaysari Iskandar uni shu darajada e’zozlagani, uning maqomini shunchalar yuqori darajaga ko’targani Arastu faqatgina buyuk donishmand bo’lib qolmasdan balki, aziz ustoz, mukarram zot va nihoyatda olijanob inson bo’lganidan dalolat beradi.

Ma’lumotlarga ko’ra, Arastu peshonasiga sochini tushirib, kalta soqol qo’yib yurgan. Zamondoshlarining guvohlik berishicha esa, lablari chetidagi doimiy

kinoyali tabassum natijasida paydo bo'lgan ajinlar Arastu o'zini faylasuf Aflotunning shogirdi, deb bilishidan darak berardi. Arastu yunon ilm-fani qo'lga kiritgan bilimlarni egallash borasida Aflotunni hatto shoh Iskandardan ham ustun qo'ygan.

„Haqiqatni izlash ham oson, ham mushkul, — degandi Arastu. — Chunki hech kim unga to'liq erisholmaydi. Shuning barobarida, hech kim uni umuman payqamasligi ham mumkin emas. Ammo har bir odam tabiatni anglashimiz uchun ozgina bo'lsa-da, o'z hissasini qo'shadi, ushbu hissalar yig'indisi natijasida esa ulug'vor manzara paydo bo'ladi”.(Arastuning bu so'zlari Vashingtondagi milliy fanlar akademiyasi binosi peshtoqiga o'yib yozilgan).

Farangiston prezidenti general Sharl de Goll (1890-1970) Arastu haqida shunday fikr bildirgandi: „Olamda bitta ham sarkarda yo'qki, o'z harbiy san'atini inson tafakkuri xazinasiga evaziga yuksaltirmagan bo'lsin. Biz buyuk sarkarda Iskandar Maqduniyning g'alabalari asosida, albatta, Arastuni ko'ramiz...”

Arastuning hakimona fikrlari chuqur mantiqli bo'lib, insonni keng mushohadaga chorlaydi:

Har kuni Quyoshning osmon toqini aylanib o'tishini, tunda esa o'zga yoritkichlarning bir tekis jilvalanishini kuzata turib, bu harakat va uyg'unliklarning sababkori Xudoning mavjudligiga iymon keltirmaslik mumkin emas.

Hurmatli odamning qandayligiga odatda uning ishiga qarab baho beriladi. Busiz uning maqsadini bilib bo'lmaydi. Agar insonning vijdonini va go'zallikka intilishlarini bevosita ko'rish mumkin bo'lganda, bu odam bajarayotgan ishisiz ham olijanob zot sanalaverardi.

Ezgulik qilishdan cho'chiydiganlarni axloqiy go'zal odamlar toifasiga qo'shib bo'lmaydi. Hamma yaxshi narsalarni yaxshi deb bilgan, boylik va amal ham buza olmaydigan odamlar eng olijanob insonlardir, deyilgan fikrlar Arastuning g'oyat donishmand bo'lganligini bildirib turadi.

Navoiy uchun Suqrot, Aflotun, Arastu, Aristotel nomlari shunchaki xotira mulkiga aylanib qolmadi. Buning yorqin dalilini Navoiyning ko'plab asarlarida ayniqsa,

„Tarixi anbiyo va hukamo” da ko’rishimiz mumkin.Unda hakim Arastu haqida shunday ma’lumot berilgan:

Aristotolis hakim Aflotunning shogirdidur, Iskandarning vaziri erdi. Aning so’zlaridin budurkim, podshoh ulug’ rudg’a o’xshar va atbon arig’larg’akim, ul ruddin ayrildilarkim, ul rud suvig’a har hol bo’lsa, arig’larg’a hamul holdur. Ul chuchuk bo’lsa, bular chuchuk; Ul achig’ bo’lsa, bular achig’; Ul sof bo’lsa, bular sof; Ul loy bo’lsa, bular loy. Pas, podshohg’a vojibdur – goyat hikmat va e’tidol bila maosh qilmoq, to xayl va hashami anga mutobaat qilgaylar.

Sh e ‘ r:

*Shoh daryo va xalq erur anhor,
Ikisining suvig’a bir maza bor.⁷*

Mazmunini izohlaydigan bo’lsak,Aflotunning shogirdi, Rum qaysari Iskandarning vaziri edi.Uning so’zlaridan budurkim : ”Podshoh katta anhor bo’lib, uning suvi ariqlarga ta’sir qiladi. Ya’ni anhor suvi chuchuk bo’lsa, ariq ham chuchuk, u sof bo’lsa bu ham sof, ul loy bo’lsa, bu ham loy...bo’ladi, deyilgan. Bunda podshoh qanday bo’lsa, xalqqa ta’sir o’tkazishi naijasida ular ham podshoh kabi bo’lib qoladilar degan chuqur mazmun ilgari suriladi.Xalqning dono, zukko va vatanparvar bo’lishi bevosita hukmdorga bog’liq bo’lishi nazarda tutilgan.

She’r: Shoh daryo va xalq bo’lur anhor,
 Ikkisining suvida bir maza bor.

Bu fikrning sal o’zgartirilgan talqini Navoiyning „Navodir ush-shabob” asarida „Hukamo havli shohning daryog’a mushobahatida va naf’u zararida” deya sarlavha qo’yilgan qit’asida shunday deyilgan:

⁷Alisher Navoiy. Tarixi anbiyo va hukamo .www.ziyouz.com kutubxonasi 45-bet.

Hikmat ahli shohni daryog'a tshbeh ettilar-
Kim, ham andin ko'p ziyonlar elga, ham ko'p sud erur.
Gah topar G'avvos bir soatda yuz durri samin,
Gah nahang og'zida yuz hasrat bila nobud erur.

„Xamsa”ning ba’zi o’rinlarida yunon olimlari Arastu, Aflotun, Porfiriylar kabilar afsonaviy, badiiy to’qima shaxslarga aylantirilgan. „Saddi Iskandariy” dostonida Navoiy Iskandar obrazini chizishda, uning fazilatlarini bayon etishda, g’olibligining sababi nimada ekanligini aytishda Arastu, Balinos, Filoqus, Suqrot, Buqrot, Arashmidus kabi olim-u fuzalolar qurshovida tasvirlaydi. Uning rub’i maskun jahondori bo’lishining asosiy sababi olimlarga tayanganligidadir.

„Saddi Iskandariy”da Navoiy o’z zamonasi, o’sha davrdagi ijtimoiy voqelik bilan bog’liq qator masalalarni yoritgan, ularga o’z munosabatini bildirgan, davrining muhim va hal qilinishi zarur bo’lgan savollariga javob berishga uringan. U inson fazilatlarining muhim belgilari oliyhimmatlilik, mol-dunyo uchun o’z qadrini yerga urmaslik, vafodorlik, oddiy hayot kechirish usuli va boshqako’plab insonni ulug’lovchi sifatlarni tashviq etgan. Shoir ayrim o’rinlarda shohlar va sultonlar faoliyatiga oid fikrlarni izhor qilib, hukmdorlarni odillik, xalqparvarlikka, insofga, to’g’rilikka da’vat qiladi. Dostonning butun-butun boblari ana shunday fikrlarni ifoda qilishga bag’ishlanadi.

Iskandarni ham shoh ham inson sifatida yetuk shaxs bo’lib kamol topishi uchun Navoiy uni olimlar davrasida gavdalantiradi

Demak, jamiyat qaysi davrda bo’lmasin uni boshqaruvchi podshoh ilm ahli va ilmiy xulosalar asosida ish yuritisa, jamiyatning siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy hayotida rivojlanish, taraqqiyot, obodlik va osoyishtalikka erishiladi. Shuning uchun olimlar Iskandar bilan yonma-yon tasvirlanadi.

Navoiy podshohlarning idrokli bo’lishi, idrok qila bilmasa donishvar olim kishilar bilan suhbatda bo’lib o’rganishi shart deydi.

Iskandar Arastudan nega odamlar qaysi ish foydali, qaysi ish zararli ekanini bilgan holda nojo’ya xatti-harakatga yo’l qo’yadilar, deb so’raydi. Arastu javob

berib deydi: „ Kishi ahli foydali ish qilish kerakligini biladi, kishining nafs hamisha oson ishga intiladi; nafs o'z intilishiga erishsa, u odamlarni foydali ishlarning mahsulidan bebahra qiladi. Har bir ishni uning amali uchun qulay paytda bajarish kerak’’.

Iskandarning g'aroyib oyna yaratish topshirig'ini olgan olimlar ikki guruhga bo'linadilar. Filotun va Suqrot bir taraf, Arastu va Buqrot ikkinchi taraf bo'ladilar. Ularga Hurmus, Balinos, Arashmiduslar ham qo'shiladilar. Iskandar doim ular bilan birga bo'ladi.

Faylaqus Iskandarning tarbiyasini mashhur olim va hakim Niqu mohisga topshirdi. Niqu mohis bilim borasida tengi yo'q olim edi, keyinchalik ulug' olim va Iskandarning do'sti bo'lgan faylasuf Arastu Niqu mohisning o'g'li bo'lgan. Iskandar undan juda ko'p ilmlarni qunt bilan o'rgandi.

Bilik kasbini qildi to joni bor,

*Hunar o'rgandi anchoki, imkoni bor.*⁸

Arastu — yunon faylasuflaridan Aristotel ismining arabcha shakli. Navoiy tasviricha, Iskandarning yurishlarida uning yonida birga yurgan, har bir bobda ilm-hikmat yo'li bilan mushkullarini hal qilib turgan yetti olim, donishmand, hakimlardan biri.

Dostonda Arastu - „...***hakimi Masihomisol***” (Iso payg'ambar misoli o'z nafasi bilan o'lik tanga jon bag'ishlovchi hakim sifatida) hamda

„ ***Nuktapardozi dono*** “ (nuktapardoz a.f.- chuqur ma'noli so'zlar so'zlovchi, chiroyli so'zlovchi dono kishi) deya ta'riflanadi.

„Saddi Iskandariy” dostonining bir necha boblari Iskandarning Arastuga savoli va uning hikmatli javoblaridan iborat.

«Birovning nojo'ya bir ishi bo'lib, uni qilishi zarur bo'lib qoladi. Ammo bu ishdan el-yurtga katta-kon zarar yetadigan, tagi qaltis, janjal chiqadigan bo'lsa,

⁸ Каюмов Азиз. Садди Искандарий. (Алишер Навоий хакида). - Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти. 1975 й . 196-бет.

birov bu ishni man' etish imkoniyatiga ega bo'lsayu, bundan o'zini chetga olsa, u kechirarli emas».

Arastu butun hayoti davomida Iskandarning yonida bo'lib, maslahatlari bilan shohni to'g'ri yo'lga solib turadi. Podshoh o'zini o'ylantirgan, hayron qoldirgan har qanday jumboqning javobini Arastudan so'rab topar edi. Bu hakim timsoli doston voqealari silsilsida ochilib boradi.

Iskandar Daroni mag'lub etgach Aron Qorabog'ida qishlaydi. Qish faslida ko'p og'irliklar bo'lsa-da, nega ta'bimiz uni tusab qoladi deb so'raydi. Arastuning javobi bunday: kishi ta'biga harorat va quruqlik iztirob keltiradi. Yoshu qariga farog'at ko'proq qishda bo'ladi.

Navoiy maxsus bir bobda safar ta'rifini qilib, safarning kishiga foydasi ko'pligi haqida aytib o'tadi.

Iskandar safar mashaqqati ko'p bo'lsa ham, nega hikmat ahli sayohatga ruhsat beradilar, degan savoliga Arastu shunday javob beradi:

Yana andin o'ldi safar ruxsati-

Ki, elning erur mujibi sihhati.

Nedinkim, safarg'a kishi ursa gom,

Taraddud erur mujibi inhizom.

Yana ulki, ta'biki, bo'ldi saqim,

Havou suv takroridin topti biym

Otasining vafotidan so'ng Iskandar xalqniyg'in o'zining shohlikka ra'yi yo'q ekanini aytadi va mamlakat podshohligiga munosib odamni qo'yishlarini taklif qiladi. Ular hukmronlikni o'ziga olishni Iskandardan iltijo qildilar. Ulug' olimlar Arastu bilan Balinos Iskandarni ikki qo'lidan tutib taxtga o'tqazadilar.

Iskandar Arastudan muxofalat maqbul hol emas, ammo uning mumkin bo'lgan payti ham bo'ladimi, deb so'raydi. Arastuning javobi bunday: birov elga zararli ish tutsa, uni to'xtatish imkoniyati bo'lgan holda ham to'xtatmasa, o'sha zararli ish taqiq etilganda ham u davom ettira bersa, unday odam bilan nizo qilish kerak.

Nizoda kishi, avval o'zini dushman bilan qiyoslashi, agar kuchi bo'lsa, kurashmog'i darkor. Agar kuchlar barobar bo'lsa yoki uning kuchi dushmannikidan kam bo'lsa, nasihat yoki tanbeh bilan cheklangan tuzuk.

Navoiy podshohlarning idrokli bo'lishi, idrok qila bilmasa donishvar olim kishilar bilan suhbatda bo'lib o'rganishi shart deydi.

Iskandar Arastudan nega odamlar qaysi ish foydali, qaysi ish zararli ekanini bilgan holda nojo'ya xatti-harakatga yo'l qo'yadilar, deb so'raydi. Arastu javob berib deydi: „, Kishi ahli foydali ish qilish kerakligini biladi, kishining nafs hamisha oson ishga intiladi; nafs o'z intilishiga erishsa, u odamlarni foydali ishlarning mahsulidan bebahra qiladi. Har bir ishni uning amali uchun qulay paytda bajarish kerak”.

Navoiy to'g'ri so'zni ulug'laydi. Kishilarning so'z bilan inson ekanini eslatib, yaxshi so'zlar bilan kishilarga pok ruh bag'ishlashga chaqiradi.

Iskandarning nega odamlar haqiqatni bilsalar ham xatoga yo'l qo'yadilar, degan savoliga Arastu kishilarning haqiqatga yaqinligi turlichadir, to'la haqiqatni bilish insonga muyassar bo'lmaydi, shu tufayli eng dono kishilar ham adashishlari mumkin, den javob qaytaradi.

Bahromgo'rni ikki do'st mehmon qilish haqidagi hikoyatdan so'ng Iskandar Arastuga mehmon kutish tartibi to'g'risidagi savoliga olim, har kimni o'ziga yarasha kutish kerak, agar shoh imkoniyatidan kamroq narsa qo'ysa ayb bo'lmaydi deb javob beradi. Iskandar Chin mamlakatida qishlab, olimlarga ularning oynasidan ibrat olib yangi oyna yasashga topshiriq beradi.

Iskandar Arastudan so'raydi, nega inson barcha mavjudotning eng ulug'i bo'lgani holda boyligidan xabardor bo'lmaydi? Arastu javob berib deydiki, talab ranji, topolmaslik shiddati inson shavkatiga sabab bo'ldi. Insonga hamisha bilmoqqa intilish xosdir.

Navoiy umrning tez o'tib ketajagi, shuning uchun uning har bir daqiqasini g'animat bilib, xushvaqtlik bilan o'tkazish kerakligi to'g'risidagi nasihatlarini bayon etadi. So'ngra podshoh saroyidan uchib ketib, o'zining xaroba oshyonida makon tutgan kabutar to'g'risidagi hikoya keltiriladi. Qush uchun yuksak qafasdan

ko'ra o'z tikanakuyi afzal edi. Iskandarning nega inson tabiati o'zi o'rgangan joyga rag'bat paydo qiladi degan savoliga Arastu, nimagaki odat qilingan bo'lsa, o'sha eskirgach, tabiatga aylanadi. Bu ixtiyoriy emas, tabiiy bir holdir, deb javob beradi.

Kunlardan bir kuni Iskandar Zulqarnayn o'ziga yaqin kishilardan biriga ko'nglida yashirib yurgan bir sirini aytib, uni saqlashni, oshkor qilmaslikni qayta-qayta ta'kidlagan edi, lekin u Iskandarning sirini uzoq saqlay olmay ichi pishib bir do'stiga aytdi. Do'sti bir kishiga, u kishi yana bir kishiga aytdi. Shunday qilib, sir hammaga oshkor bo'ldi.

Sirining oshkor bo'lganidan ortiq darajada g'azablangan Iskandar ustodi Arastuga:

— Ey hakim, kishining sirini fosh qilganga qanday jazo berish kerak? Men falon kishiga sirimni aytgan edim, u kishi sirimni saqlay olmay oshkor qilgan, men endi unga jazo bermoqchiman, siz bunga nima deysiz? — dedi.

Arastu hakim aytdi:

— U kishiga jazo berishga haqqing yo'q, o'zing aybdorsan, siringni o'zing saqlay olmay, yuraging toshib ketib birovga oshkor qilgansan. O'zing saqlay olmagan sirni boshqa kishi qanday saqlay olsin? — dedi. Iskandar sukut etishga majbur bo'ldi.

Bayt:

Chun o'zing siringga mahram bo'lmading,
O'zgalar gar asramas, yo'q, bir ajab.

Iskandar Rumiylar bir kun ustodi Arastudan: — Ey, ustod, men buyuk ishlarga qadam qo'ydim. Bu ishlarim natijasida do'stlarni ham, dushmanlarni ham topaman. Ular bilan qanday muomala qilishim kerak? — deb so'radi.

Arastu hakim shunday deb edi:

— Iloj boricha o'zingga dushman orttirma. Biror kishi senga dushmanlik ko'rsata boshlasa, sen unga marhamat nazari bilan qara, dilnavoz bo'l, shu bilan u kishi do'stlaring qatoridan joy oladi. Do'stlaringni shafqat va marhamating bilan sarafroz qil, ular sendan ajralmay, samimiy do'stlaring bo'lib qoladilar.

— Yolgʻonchi kishidan vafo kutma. Toʻgʻri soʻz koʻngilga achchiq va qattiq tegadi. Odam yaxshilik qilganga yaxshilik qiladi, bir yaxshilikka oʻn hissa yaxshilik qaytaradi. Kimning asli pok — sof boʻlsa, u odam elga manfaat yetkazadi. Ey mard odam! Odamiylik qil, oliy himmatli, tavozeʻli, ochiq yuzli, shirin soʻzli boʻl.

HASAD

Aytishlaricha, Iskandar Rumiylar zamonida bir jonivor paydo boʻldi, unga kim roʻpara kelsa darhol halok boʻlardi. Iskandar donishmandlari bu baloni daf qilish uchun har qancha urinsalar ham, hech narsa qila olmadilar. Nihoyat, bu baloni daf qilish chorasini Arastu hakim topdi. Uning buyrugʻi bilan juda ham katta oyna tayyorladilar, u oyna orqasida bir-ikki kishining bekinib oʻtirishi mumkin edi. Oʻsha oyna sigʻarlik juda katta arava tayyorlab, uni aravaga koʻtarib qoʻydilar. Arastu oyna orqasida bekinib oʻtirdi. Aravani u jonivor turadigan joyga yaqinroq yerga keltirib qoʻydilar. Jonivor odam isini olib, arava tomoniga qarab kela boshladi. Aravaga yaqin kelgan edi, koʻzi oynaga tushdi, oynada oʻz suratini koʻrib, darrov yiqilib oʻldi. Iskandar bu ishdan juda taajjublanib Arastudan buning hikmatini soʻradi. Arastu shunday bayon qildi:

— Ey Iskandar, bu jonivor yer ostida necha yil yotgan badboʻy bugʻlardan vujudga kelgandi, uning koʻzida zahari qotil bor edi, kimga koʻzi tushsa, u kishi darrov oʻlardi. Men oldiga oyna olib bordim, uning aksi oynada paydo boʻldi, nazari unga tushdi. U nazar bu aks vositasi bilan oʻziga qaytdi va oʻz nazarining asari oʻziga urib halok boʻldi, Iskandar Arastuga tahsin oʻqidi. Hasadining yomonligi oʻziga qaytadi. Oʻt kuydirish uchun biror narsa topmasa, oʻzini oʻzi kuydiradi.⁹

Bu kabi hikmatlarda Arastuning nechogʻliq bilimdon, zukko va dono inson boʻlganligini anglab olish qiyin emas. Demak, Hazrat Navoiyning butun boshli bir dostonida muntazam ishtirok etgan, podshohi va shogirdi boʻlmish Iskandar bilan doim birga boʻlib, unga toʻgʻri yoʻl koʻrsatib kela olgan inson -hakim, donishmand

⁹Oz-oz oʻrganib dono boʻlur.-Toshkent :Gʻ afur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1982. 72-bet. www.ziyouz.com kutubxonasi.

bo'lgani bois ham mana shunday e'tiborga loyiq bo'lgan. Navoiy uni hayot haqiqatiga asoslanganholda insoniyatga dahldor barcha jihatlarni badiiy ifodalarda mukammal tasvirladi. Adibning maqsadi ham aynan shu edi. Va buning to'laqonli ustidan chiqqanligi dostonda yaqqol ko'rinadi, deya olamiz.

„Saddi Iskandariy”da bir qancha olimlar obrazi mavjud. Bular Naqumohis, Arastu, Filotun-Aflotun, Suqrot, Asqalinus, Buqrot, Hurmus, Faysog'urs kabilardir. Ularning ko'plari juda qadim zamonlardan boshlab Yaqin va O'rta Sharq xalqlari orasida mashhur bo'lib, u olimlar tomonidan yaratilgan asarlarning ko'pchilik qismi arab tiliga tarjima qilinganligi tufayli keng tarqalgan hamda shu joylarda yashaydigan olimlar tomonidan ularga sharhlar berilgan. Xalq orasida Arastu, Aflotun haqida afsona va rivoyatlar paydo bulgan, badiiy asarlar yozilgan. Alisher Navoiy bu afsona, rivoyat, asarlar bilan tanish bo'lgani ehtimoldan uzoq emas. Biroq Navoiy «Saddi Iskandariy»da olimlarning tarixiy obravlarini yaratish yoki ularning ilmiy ishlarini bayon etish, ijtimoiy-falsafiy qarashlarini talqin etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan emas. U an'analarga amal qilgani holda, yunon olimlaridan xalos topish osonroqdir» ning nomlarini keltirgan. Bundan maqsad esa, ular obrazi orqali o'z davridagi ijtimoiy-siyosiy, falsafiy qarashlarni yoritish edi. Shuning uchun ham Navoiy olimlarni antik dunyodan o'z zamoniga olib kirgan. Shoir ular orqali ilm-ma'rifatni targ'ib qiladi hamda o'z davridagi olimlarni el-yurt uchun foydali ishlar bilan shug'ullanishga undaydi. Bundan tashqari, Navoiy o'z davri hukmdorlarini ilm-fan ahllariga homiylik qilishlarini (shoirning o'zi bunga yorqin misol bo'la oladi), ularning oqilona maslahatlarini tinglab, davlatni idora qilishni uqtiradi.

Yunon donishmandi Arastuning hikmatlaridan quyida keltirib o'tishni joiz deb topdik, zero,donolar hikmati bilan tirik.

Arastu hakim aytadi:

— To'g'rilik uchun qurbon bo'lish — yolg'onchi bo'lib uzoq umr ko'rishdan ko'ra xayrlidir.

* * *

Arastu hakim yana aytadi:

— Ulug‘likka erishish juda qiyin, ammo xasislik, pastkashlikka tushish juda osondir.

Arastu hakim aytadi:

To‘g‘ri so‘zlab, to‘g‘ri ishlab vafot etish yolgonchi bo‘lib, uzoq yashashdan ko‘ra xayrlidir.¹⁰

Arastu hakim aytadi:

— Ko‘r odam bilan ko‘zi sog‘ odam bir quduq ichiga yiqilib tushgan bo‘lsalar, baxtsizlikda har ikkalasi bab-baravardir. Lekin ko‘r odam uzrli, uni ayblab bo‘lmaydi, chunki u ko‘r bo‘lgani uchun, bu falokatga uchradi. Shu sababdan har kim unga achinadi, uni ayblamaydi. Lekin ko‘zi ochiq odamni hamma ayblaydi, ko‘zi ochiq bo‘la turib, ehtiyotsizligi orqasida quduq ichiga yiqilib tushgani uchun uni masxara qilib kuladilar. Shu sababdan sog‘lom ko‘zga ega bo‘lganlar shukur qilib, har bir ishda ehtiyotkorona harakat qilishlari lozimdir.

¹⁰Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur.-Toshkent :G’ afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1982. 17-bet. www.ziyouz.com kutubxonasi.

II bob. Adibning Sharq donishmand –mutafakkirlari timsolini yaratishdagi badiiy mahorati.

2.1 Navoiy ijodida ustoz Farididdun Attorning o'rne.

Ulug' shoir Fariduddin Attorning *“buyuk Shaxsi ham, ijodiyoti ham ilhom va ibrat maxzanidir. Uning Shaxsi – asarlariga, asarlari – shaxsiyatiga eshik ochadi. Bu ma'rifat, ishq, ruhoniyyat, san'at “eshigi”dan faqat alohida qalam sohiblari emas, butun boshli millat ijodkorlari ichkarilay olganligi xayratlanarli, albatta”*, deb yozadi tasavvufshunos olim Ibrohim Haqqul.

Shayx Attor ruhni sevgan; din va axloqning kuch-quvvatiga suyanagan; ma'rifat, ishq va badiiy ijod zavqini nihoyatda yuksak qadrlagan. Abdurahmon Jomiy *“uning masnaviyati va g'azallarida tavhid asrori va ruh zavqiyati bilan vujudiyat haqiqati shu qadar ko'p ifodalanganki, bu toifaning hech birining so'zida topilmaydi”*, deb yozgan.

Alisher Navoiy shayx Fariduddin Attorni samimiy iftixor tuyg'usi bilan *“Foniylilik Ko'hiqofining anqosi, jamiki qushlar tilining donosi, shariat yo'llarining peshvosi, tariqat avliyolarning qiblagohi, hidoyat sham'i bilan qalblarni nurlantiruvchi, haqiqat sirlarining kashfiyotchisi, noziklik nurlarining mazhari, ma'rifat ahllarining tojdori”* deb ta'riflagan.

“Lison ut-tayr” dostonida shunday misralar bor:

Nasr ila chun “Tazkira” mavjud etib,

Avliyo arvohini xushnud etib.

Har birining ruhidan yuz tiyra zot,

Jon topib ichkon kibi obi hayot.

Navoiy butun umri davomida xayolini band qilgan, qaldini zabt etgan „Mantiq ut-tayr“ dostoniga mehr qo‘ygan ekan, shubhasiz uning muallifi bo‘lgan Fariduddin Attor shaxsiga ham hurmat- ehtiromi cheksiz bo‘lgan.

Navoiy Fariduddin Attorni nafaqat o‘zining buyuk ustoz deb bilgan balki, ilmu donishda ham ulug‘ hakim sifatida ko‘rardi. Navoyning ustoziga bo‘lan cheksiz hurmat-ehtiromi, samimiy muhabbati uning barcha asarlarida o‘z ofodasini topgan edi. Shu jumladan, „**Nasoyim ul –muhabbat**“ asarida ham. Adib ushbu asarida ustoz haqida quyidagi ma‘lumotlarni keltirib o‘tadi. Bu Fariduddin Attor shaxsini o‘rganishda hozirgacha bo‘lgan muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

Shayx Fariduddin Attor Nishoburiy q. s.

Alar shayx Majduddin Bag‘dodiy q. s. ning murididurlar va «Tazkirat ul-avliyo» kitobikim, alarning musannafotidindur. Aning debochasida o‘zlarining Shayx Majduddin‘a irodatlarni zohir qilibdurlar va ba‘zi debdurlarki, Uvaysiy ekandurlar va Mavlono Jaloluddin Rumiy q. s. so‘zlarida mazkurdurki, Shayx Mansur Halloj nuri yuz ellik yildin so‘ngra Shayx Fariduddin Attor ruhig‘a tajalli qildi va oning murabbiysi bo‘lubdur. Deb durlarki, alar andoqki otlari mashhur, attor ekandurlar. Tavbalarig‘a sabab bu bo‘lg‘ondurki, bir kun attorlig‘ do‘konida muomalag‘a mashg‘ul va mash‘uf emishlar.

Darveshe do‘kon eshigiga yetar va necha qatla [Alloh uchun biror narsa ber!]1 der. Anga parvo qilmaslar. Ul darvesh derki, ey Xoja, ne nav‘ o‘lgungdur? Alar deb durlarki, andoqki sen o‘lgungdur!

Darvesh debdurki, sen mendek o‘laolmassen! Alar deb durlarki: Nechuk? Darvesh debdurki, mundoq!

Yag‘och ayog‘in boshin ostiga qo‘yubdur «valloh», debdur va jonni haqqa taslim qilibdur. Alarning holi mutag‘ayyir bo‘lubdur va do‘kon va anda lag‘n har ne bor ekandur, barham urubdurlar va bu tariqqa kiribdurlar.

Debdurlarki, Mavlono Jaloluddin Rumiy Balxdin Makkaga borurda, Nishopurda alar suhbatig‘a yetibdur va Shayx kibari sinda ermishlar. «Asrornoma» kitobini Mavlonog‘a beribdurlar va Mavlono doim ul kitobni o‘zidin ayirmay, o‘zi bila asrar ermish va haqoyiqu maorif adosida iqtidosi alarg‘adur, andoqki debdurki,

b a y t:

[Mavlono Attor atrofidan yurdi, Shams qo‘lidagi sharbatdan ichdi]

Va yana bir yerda debdurki,

n a z m:

[Attor ruh ediyu Sanoyi uning ikki ko‘zi. Biz Sanoiyu Attor izidan keldik]

Va onchaki tavhid asrori va azvoqu mavojid haqoyiqining adosi va guftu guzoriki, alarning masnaviy va g‘azaliyot va soyir nazmlarida indiroj topibdur»

Hazrat Maxdumiy n. m. n. debdurlarki, bu toifaning hech qaysining so‘zlarida topilmas. [Alloh subhonahu mushtoq toliblarning eng yaxshi mukofoti bilan uni siylasin! Qutlug‘ nafasidan namunalar].

N a z m:

[Ey yuzini berkitib, bozorga kelgan, xalq bu tilsimga muftalo bo‘lib qoldi].

Va bu qasidadur, yigirma baytdin ortuqroq va aholidin ba‘zi anga sharh bitibdur. Va murod bu mubham adodin ul Hazratqa janobi maorifpanoh Xoja Hofiz Ali Jomiydur q. s.ki, ko‘prak ulumda bataxxis, tasavvuf ilmida zamonining yagonasi erdi va o‘tgan matla’ sharhida bu nav’ bitibdurlarki, ey ulki, o‘z yuzinki zohir vujud nuridur, ta‘ayyunot va suvar burqa’i bila yoshurub, yoshirun zuhur bozorig‘a kelib, xalqe bu suvar tilismidinki, bu maxfiy ganj yuziga tortibsen, ta‘ayyunoti muxtalifa kasrati va osori mutaboniya vositasidin bu‘du hijron va g‘aflatu pindor va g‘ayrat giriftori bo‘lubdurlar. Yoxud ul yuz jamoli partavi siroyati vositasidinki, mazohir va suvari jamila pardalaridin ishq balosi va muhabbat mehnatig‘a giriftor bo‘lubdurlar. Ba‘zi ma‘nog‘a oshiq va ba‘zi suratqa.¹¹

B a y t:

¹¹Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat .www.ziyouz.com kutubxonasi ,223-bet.

[Sen – ma’no, sendan boshqasi ismdir, sen – xazina, barcha olam tilsimdir]
Va surat oshiqdari o‘z vahmlari bila ma’shuqdin yiroq tushubdurlar va bilmaslarki,
kimning oshiqidurlar va alarning ko‘nglin olg‘on kimdur?

Sh e’ r:

[Seni tanisalar ham, tanimasalar ham barcha olam xalqining mayli sengadir]⁶
va bu dastur bila bu qasidani tamom sharh qilibdur va ixtisor jihatidin bu bir baytni
irod qilildi va bu zaifi nomurod Hazrat Shorih q. s.ning xizmatig‘a musharraf
bo‘lib erdim va ba’zi ulumda alardin sabaq eshitib erdim va Hazrat Shayx
buzurgvorning nazmu nasrkdin musannafoti behad ko‘pdur. Ulcha ul orasida holo
mavjud bor. Nazmlari yuz yigirma ming bayt taxminan bo‘lg‘ay va so‘zi anga
o‘xsharki, bu bantlarig‘a xatm qilmish bo‘lg‘aylar.

Sh e’r:

[Kofirning kufriyu dindorning dini Attor qalbida bir zarra darddir].
Va ul Hazrat olti yuz yigirma yettida kuffor ilkida shahodat sharbati totibdurlar va
derlarki, muborak sinni yuz o‘n to‘rt yoshida ermish va mutahhar mozorlari
Nishoburdadur va maxlis niyozmandlardan ba’zi muravvah imorat yasabdurlar,
yuzaru va yutabarraku bihi. („Nasoyim ul- muhabbat’’asaridan)¹²

Navoiy „Mahbub ul-qulub’’dostonining *O‘n oltinchi faslida, ya’ni Nazm gulistoning xushnag‘ma qushlari zikrida* deb nomlangan kichik bobida Fariduddin Attor nomini ham tilga oladi:

Ul necha tabaqadur: avvalg‘i jamoat-nuqudi kunuzi ma’rifati ilohiydin g‘aniylar
va xalq ta’rifidin mustag‘niylardur. Ishlari maoniy xazoinidin ma’rifat javharin
termak va el fayzi uchun vazn silkida nazm termak. Nazm adosi bag‘oyat arjumand
va benihoyat sharif va dilpisand o‘ldug‘i uchun oyoti kalomda nozil bor va hadisi
mu’jiz nizomda tilagan topar, chun maal – qasd emas, el hurmati jihatidin

¹²Алишер Навоий.Насоим ул-мухаббат//Асарлар, Т.Ун бештомлик/ МухаррирАзизКаюмов.-
Т.:Гафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи,1968.-169-171-бетлар.

ani she'r demas. Ammo bu aziz qavmning peshvo va muqtadosi va bu sharif xaylni sardaftar va sarxayli valoyat bahrining gavhari va karomat avji munir axtari Amir ul-mo'min Ali (razi allohu anhu va karimullohu va vajhu) durkim, nazm devonlari mavjuddur va anda asror va nukat noma'dud.

Bu mazhari ajoyibqa guruhekim tobe'dur, ba'zini arz qiloliki, kimlar voqe'dur; forsiy iboratda ul jumladin, nozimi javohiri asror Shayx Fariduddin Attordur¹³. Ya'ni Attorni forsiyda nazm javohirlari sirlaridan ogoh kishi deya ta'riflab o'tgan.

Alisher Navoiy hikmatlariga to'xtalganimizning boisi bor: sharq adabiyotining birinchi fazilati hikmatga boyligi, unda tafakkur mevalarining ko'pligi va ularning bebaholigidir.

«Mantiqut-tayr» ham «Lisonut-tayr» singari bebaho asardir. «Mantiq-ut-tayr» dostonida barcha qushlar bir yerga jam bo'lib, majlis qurishadi. Biroq bazmdagi tartib masalasida, ya'ni o'rin – martaba, izzat-hurmat, sharaf-salohiyat, ulug'lik – tubanlik, kamtarlik va manmanlik, o'zini bilish va bilmaslik kabi masalalarda ziddiyatlar kelib chiqib, mojaro yuz beradi. Qushlar o'zlariga insof-diyonatli, odil, haqqoniy bir podshoh saylash zarurligini, shu orqali o'z jamoatida yuz bergan janjal mojaro, qiziqqonlik holatlariga barham berish muhimligini his qiladi. Xuddi shu chog'da popushak Hudhud bashorat berib, qushlar naslidan bir podshoh Semurg' borligini, uning qushlar ahvolini miridan-sirigacha bilishligini, u garchi qushlarga juda yaqin bo'lsa-da, qushlar g'ofillik va nodonliklari sababli undan ancha yiroqlashib ketganligini aytadi. Endilikda qushlar ana shu Semurg'ning visoliga noyil bo'lsalargina barcha tahlikalar va nizolardan forig' bo'lish mumkinligini aytadi. Qushlar xursand bo'lib Hudhudga ana shu Semurg' dargohiga boshlab borishni taklif qilishadi. Hudhud Semurg'ning dargohiga yetib borish jarayonida duch kelishi muqarrar bo'lgan talay mashaqqatli qiyinchiliklar, azob-uqubatli sinovlar kutajagini ham bayon qiladi. Ma'lumki, Attor bu yerda Hudhud va qushlar timsoli orqali o'zining tariqat g'oyasini bayon qiladi. Ya'ni ramziy ma'nodagi ustoz-pirning Hudhud orqali aqldan ozib g'aflatda qolgan kishilarga qarata qilingan nasihati sifatida nazm tiliga ko'chiradi.

¹³Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. www.ziyouz.com kutubxonasi 12-bet.

Alisher Navoiyning mashhur falsafiy dostoni «Lison ut-tayr» (Qush tili) bo‘lib, bu asar 904h. – 1498-1499m. yilda, ya’ni shoirning hijriy hisobda oltmish yoshga qadam qo‘ygan yili (tug‘. 844 h. yil) yozilgan. Bu haqda shoirning o‘zi dostonning

Alisher Navoiy oltmish yoshga qadam qo‘yganida mazkur dostonni yozgani sabablari asarning «Bu kitob nazmida o‘z munosabatining taqribi» deb atalgan 189-bobida ma’lum darajada bayon etilgan. Uning mohiyati shundan iboratki, Fariduddin Attorning «Mantiq ut-tayr» asari Alisherning hali maktabda o‘qub yurgan chog‘ida uning diqqatini o‘ziga tortibgina qolmay, balki o‘ziga shunday maftun etgan ediki, yosh Alisher uni boshdan oxirigacha yodlab olib, takror-batakror o‘qib yurardi. Bu holdan xabar topgan ota-onasi uni o‘qishni man’ etib, asarni yashirib qo‘yadilar. Alisher Navoiy shunday yozadi:

Demak, Farididdin Attorning «Mantiq ut-tayr»i Alisher Navoiyni yoshligidan o‘ziga maftun etib, umri davomida uning bilan hamroh bo‘ldi, unga javob yozish niyati ham shoirning ko‘nglidan joy olgan edi. Ana shu niyat Alisher Navoiyning oltmishga qadam qo‘yganida amalga oshdi. Bu bejiz emasdi. Chunki shu davrda Alisher Navoiy o‘zining «Munojot», «Siroj ul-muslimin» asarlarini ham yozgan edi. Bularda, xususan «Munojot»da go‘yoki umri bo‘yicha qilgan ishlarini sarhisob qilib, yana bajarilishi lozim bo‘lgan ishlar, ya’ni hali ko‘p «qarzi» borligiga ham ishora qilganday bo‘ladi. Ana shunday bajarilishi lozim bo‘lgan ishlardan biri «Mantiq ut-tayr»ga javoban turkiy tilda bir asar yaratish muddaosi ediki, Alisher Navoiy «Lison ut-tayr» dostonini yozish bilan bu ishni amalga oshirdi.

Farididdin Attor XII asrning mashhur shoir va adiblaridan bo‘lib, o‘zining «Ilohiynoma», «Tazkirat ul-avliyo» va, xususan «Mantiq ut-tayr» asarlari bilan o‘zidan keyingi adabiy va ma’naviy hayotda katta mavqega ega edi. Hatto Jaloliddin Rumiy Farididdin Attorning orifona kashfiyotlariga yuqori baho berib, shunday yozgan edi:

Haft shahri ishqro Attor gasht,

Mo hano ‘z andar xami yak ko ‘chayem.

Mazmuni: Attor ishqning yettita shahrini kezib chiqdi, biz bo'lsak hali ham ishqning bir ko'chasi boshidamiz.

Darhaqiqat, Attor ishqni tasavvufona talqin qilgani tufayli Alisher Navoiyning ham diqqatini o'ziga qaratgan edi. SHuning uchun yozadi:

Haq munung nutqin chu go'yo ayladi

«Mantiq ut-tayr» oshkoro ayladi.

Bu til izohin kamohiy aylabon,

SHarhi asrori ilohiy aylabon...

(MAT, 20 tomlik, 12-tom, 277-bet)

«Lison-ut-tayr» dostoni o'zbek tilida yozilgan bo'lsa-da, unda «Navoiy» taxallusi emas, balki Alisherning ikkinchi taxallusi bo'lgan Foniylar qo'llanilgan. Dostonda bu taxallusning qo'llanilgani sabablarini bayon etish uchun shoir «Bu kitobda taxallus tag'yirining uzri» sarlavhali alohida bob (191-bob) ajratgan. Unda turkiy tildagi asarlarida Navoiy va forsiy tildagi asarlarida esa Foniylar taxalluslarini qo'llaganligini aytib, «Lison ut-tayr» ham turkiy-o'zbek tilida bo'lganidan unda Navoiy taxallusini qo'llash joiz edi, ammo men unda Foniylar taxallusini qo'llash maqsadga muvofiq deb bildim, deb shunday yozadi:

Chun «Lison ut-tayr» og'oz ayladim,

Turfa qushlar birla parvoz ayladim.

Munda ansab erdikim tuzg'och navo,

Bo'lsa nazmimg'a Navoiydin ado.

..Bu raqamda Foniylar aylarga laqab,

Mustame' bo'lg'ong'a ayturmen sabab,

Munda Foniý bo‘lmay ish o‘lmas tamom,

Foniý andin topti nazmim ixtimom.

(MAT, 2O tomlik, 12-tom, 299-300-betlar)

Shunday qilib, Alisher Navoiy dostonning mavzusi unda Foniý taxallusini qo‘llashni talab qilganini yozadi va, bu bilan, badiiy asarga muvofiq taxallus qo‘llashning ham katta ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi.

Dostonning asosini tashkil etgan qushlarning Simurg‘ tomon intilishi va ularning bu yo‘lda boshdan kechirgan sarguzashtlari, shu munosabat bilan keltirilgan turli hikoyat va masallarda ham ana shu masala bosh yo‘nalish bo‘lib xizmat qiladi. Undan har bir kishi o‘z ma’naviy kamoloti darajasida o‘zi uchun va ilm uchun tegishli muhim ma’lumotlarni, hayotiy dasturlarni topa oladilar degan umidimiz bor.

Navoiy „, Mantiq ut-tayr “ dostoniga javob tarzida yozilgan ushbu asarda hech shubhasiz Fariduddin Attor shaxsiga hurmati, muhabbati va an’anaga binoan ham ustozini keltirib o‘tmasdan dostonni yoza olmasdi. Ustoz siymosi nihoyatda tengsiz ta’rif va tashbeh ila yoritiladi:

Har ne gardun bahr ila konida bor,

Oncha yuz Attor do‘konida bor.

Uyla qushlar nutqini izhor etay

Bulbulu to‘ti kibi guftor etay.

Kim xaloyiq chun tarannum aylagay.

Qush tili birla takallum aylagay.

Lek surmak nuktani to‘ti misol.

Budur insof o‘lsa, ey farxunda fol.

Kim bu to‘ti tu‘masi bo‘lg‘oy shakar,

Ul shakar fikr aylasang bo‘lg‘ay magar.

Jaloliddin Rumiyl tomonidan aytilganidek, Fariddin Attor, jumladan Alisher Navoiy ham ishqning etti shahri-vodiysini kezganlar va uning natijasini bayon etganlar. Ko'p azob-uqubat chekkan o'ttiz qushda «Simurg' jamolini ko'rsatib, o'ttuz qushni foniylkdan boqiylikka erishtirgay», degan xayol – tushuncha bor edi. Ammo qushlar etib kelgan manzilning qaysi tomoniga qaramasinlar faqat o'zlarini ko'rdilar. SHunisi nihoyatda ajoyibki, o'ttiz qush Simurg'ni ko'rishga havas qilardilar, ammo ular o'zlarini – o'ttiz qush – Si murg'ni ko'rdilar, xolos. Xuddi shu vaqtda qushlar sadaf ichida durlarning hosil bo'lishi sirlarini angladilar. Ey ko'ngul, bu so'zlar qushlarning ramzlarga to'la tilidir. Bu so'zlarda yashirin ma'nolar bor, ya'ni riyozat-azob-uqubat chekish poklanishga erishishdir. CHunki riyozat ma'naviyatni yuksaklikka ko'taradi va insonni nafs balosidan qutqazadi. Shunda insonda ruhoniyyat-ma'naviyatdan boshqa hech narsa qolmaydi. Sen bu holatni noto'g'ri tushunishdan voz kechgil. Inson zoti yomon axloqni o'zidan ketgizsa, u eng sharaflidir.

Dostonda aytilmoqchi bo'lgan asosiy mazmun bu baytlarda qush tili misolida, qushlar timsolida o'z aksini topgan. Dostonda tasvirlangan voqealar quyidagicha: Boshliq- shohlaridan mahrum bo'lgan qushlar bir joyda to'planadilar. Ammo ular o'tirish-turish, o'zni tutishda qoidalarga rioya qilmaganlaridan janjollashadilar. Bu holni ko'rgan Hudhud ularga yaxshi boshliq-shoh, ya'ni Simurg' haqida hikoya qiladi. Bu hikoyani eshitgan qushlar bu shohni –Simurg'ni ko'rishga Hudhud boshchiligida yo'lga o'tlanadilar. Yo'l og'ir va uzoq bo'lganidan ko'pgina qushlar undan qaytadilar. Faqat o'ttiz qushgina riyozat-azob-uqubatlarga bardosh berib, etti vodiyni kezib, Simurg'ning go'zal manziliga etib keladilar. Ammo bu manzilda qaysi tomonga qaramasinlar afsonaviy Simurg'ni emas, balki o'zlarini – si murg' – o'ttiz qushni ko'rdilar, ya'ni qushlar – timsollar, Alisher Navoiy iborasi bilan aytganda, riyozat chekib, o'zlarida eng go'zal sifatlarni – «sifotilloh»ni mujassam etib, komillik darajasiga erishdilar. Demak, insonning komillik darajasiga erishuvi ana shu timsollar – qushlarning afsonaviy Simurg'ni izlashlari, uni esa o'z vujudlarida ko'rganlari voqeasida bayon etilgan.

Insonning ma'naviy jihatdan poklanishi masalasi dostonda turli munosabat bilan Hudhud tilidan bayon qilingan o'g'it – nasihatlarda, qushlarning savollariga bergan javoblarida, hikoya va masallarda ham o'z ifodasini topgan.

Fariduddin Attor „Tazkirat ul- avliyo“da Hazrati Shayx Hamduni Qassorning o'z shogirdlariga vasiyatini keltiradi: „ Men sizlarga ikki narsani vasiyat qilib qoldiraman: olimlar bilan hamsuhbat bo'linglar, johildan uzoq yuringlar“¹⁴ .

Fariduddin Attorning „Asrornoma“ „Pandnoma“ va „Musibatnoma“ dostonlaridagi pand-nasihatlar berilgan. Jumladan, Hayot charxpalagi qiyomatgacha tinmay aylanaverishi, o'ylamasdan so'zlagan odam keyinchalik pushaymon bo'lishi haqida, shuningdek, do'st tanlashda pushaymon bo'lmaslik uchun oqil odamni tanlash kerakligi haqida so'z yuritadi. Attor so'zlari tinglovchi yuragiga yetib borishi uchun bosqlik bilan gapirishning foydasi haqida so'zlar ekan, u bu so'zlarini o'tmishning taniqli mutafakkirlari nomi bilan bog'laydi.

Shayx Attor ijodidan ko'rinadiki, u qadimgi yunon donishmandlari: Suqrot, Aflotun, Arastu va fors adabiyoti va ijtimoiy tafakkuri vakillarining axloq-odob borasidagi merosi bilan yaxshi tanish bo'lgan. Nutqda bosqlik haqida gap ketar ekan, mutafakkir o'z fikrlarini hakim zotlarning so'zlari bilan isbotlaydi: „ Luqmon o'g'liga dedi: „ Ey o'g'lim, ko'p so'z durlarini terganimga Luqmoni Hakim deb nom olganimga qaramay, sergap bo'lganimdan pushaymon bo'ldim, sukut saqlaganimdan esa afsuslanmadim“. Tilni tiyish haqidagi o'z fikrini tasdiqlash uchun Shayx Attor Arastuning quyidagi fikrlarini keltiradi : „ Arastudan so'rashibdi: „ Bir umr zindonda nima begunoh yotadi? U javob beribdi: „ Bu tanglaying zindonda hibsda yotgan tildir. Tish va lablar ikki eshikdir, ular tilni kechayu kunduz hibsda saqlaydi“. Tini tiyish- kam gapirish, so'zlarni chiroylisini tanlash, yaxshi –yomon so'zlarni aralashtirmasdan, yaxshi gapirish demakdir.

¹⁴ Фаридуудин Аттор. Тазкират ул-авлиё. Тазкират ул-авлиё. -Тошкент :Гафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи.2013.-464 б.-87- бет.

Fariduddin Attor ijodida insonning kamtarligi, xokisorligi va uni qurshab olgan muhitdagi xulq-atvori haqidagi masala muhim o'rin tutadi. Shayx Attor fikricha, so'zda ham, amalda ham kishi o'z suhbatdoshini xafa qilmasligi lozim. Dono odam shaxsiy mag'rurligi bilan boshqalardan o'zini baland sanashi yaxshi emas. Odam nurini teng taratgan quyoshga o'xshamog'i lozim: „Jonu taning bilan quyoshdek mehribon bo'l, hammaga baravar qara”.

Fariduddin Attor hikmatlari insonni Haq va haqiqatga undaydi, uning komillik sharafiga ulug'laydi. Shayx shunday yozadi: „Avliyolar xilma-xil bo'lurlar: ba'zilari ma'rifat ahlidirlar, ba'zilari muhabbat ahlidirlar, ba'zilari tavhid ahlidirlar va ba'zilari esa bu xislatlarning hammasida egadirlar; ba'zilari sifat sohibi bo'lib, ba'zilari besifatdirlar, ularni shahlab bo'lmas”.¹⁵

Shayx Attor shaxsiyati va buyuk ijodiga Navoiy salaflari ham g'oyatda hurmat va ehtirom bilan qaraganlar. Xususan, Abdurahmon Jomiy „Nafohat ul-uns” asarida shunday yozadi: „Ul kishi Shayx Majididdin Bag'dodiyning murididir. U zotga mansub bo'lgan „Tazkirat ul-avliyo” kitobining debochasida (Attor) aytadi: „Bir kuni Imom Majididdin Muhammad Xorazmiy huzuriga bordim. Ko'rdimki, ul zot yig'layotir. „Xayr bo'lg'ay. Bu ne hol? “ – dedim. „Hayriyatki, bu ummat ichida sipahsolor- yo'l boshchi valiylar bor ekan! Ular darajada payg'ambar kabadirlar. “

Navoiy butun umrlik muhabbatini qozongan va xayolini band qilgan asarni qanchalaik yaxshi ko'rgan bo'lsa, uni yaratgan yaratuvchi Shayx Fariduddin Attorga ham muhabbati cheksiz edi. Bu siz Navoiy o'zini qarzidor his etib, „Lison ut- tayr” dostonini balki yozmagan bo'lardi. Shunki Alisher Navoiyning barcha asarlari shu darajada yozilgan yetuk asarlardir. Biroq ko'ngil, e'tiqod va muhabbat birligini tutashtiruvchi, uni mukammal qiluvchi nimadir bo'ishi kerak edi.

¹⁵Акмал Саидов. Атторшунослик.Фаридуддин Аттор тафаккур хазииналари.../ масъул мухаррир М.Кенжабек.- Тошлент: Sharq,2013.-384 б. 200-бет.

Anglaganimizdek bu yuksak ehtirom, sadoqat va burch edi. Navoiy buni mukammal darajaga yetkaza oldi.

2.2.Shoir salafi Abdurahmon Jomiy shaxsiga munosabati.

Fayzi gadovu shoh aro muntashir,

Xizmatig'a shohu gado muftaxir.

Alisher Navoiy

XV asr ikkinchi yarmidagi ilmiy-adabiy muhitining ko'zga ko'ringan namoyandalari anchagina bo'lsa-da, Abdurahmon Jomiyning ham ustod, hamda naqshbandiyaning Xurosondagi murshidi sifatida alohida o'rni va maqomi bor. Ana shu buyuklik tufayli Alisher Navoiy hazrat Abdurahmon Jomiyning «sohibdavlati buzurgvor.... sohib kamoli nubuvvat kirdor» deb, akademik Aziz Qayumov «nazm va tafakkur quyoshi», prof. R. Vohidov esa «Sharqning buyuk allomasi» deb ulug'laganlar.

Markaziy Osiyo milliy yuksalishining ikki yirik dahosi Mavlono Nuriddin Abdurahmon Jomiy va Nizomiddin Amir Alisher Navoiyning katta madaniy, adabiy jarayon shakllanuvidagi faoliyatlari, ilmiy-adabiy hamkorliklari haqida so'z borganda kishi ko'z o'ngida oily insoniy fazilatlardan bo'lmish vafo va sadoqat timsollari namoyon bo'ladi. O'z davrining yirik siyosatdonlari, mutafakkir allomalari, faylasuf donishmandlari va dilbar shoirlari bo'lmish bu ikki benazir insonni ulardagi yuksak salohiyat birlashtirib turar edi. Qalamlari qudrati siri ham ular qalblaridagi ma'rifat ziyosi, g'oyat go'zal ichki madaniyatlari bilan bog'liq edi. Ularni bir-biriga tortib turuvchi kuch nafaqat adabiy hamkorlik, balki komil ixlos, poklikka sadoqat, insonga nisbatan mehr-shafqat, nafosatga muhabbat va nazokatli tabiat edi.¹⁶

¹⁶ Дилором Салохий.Ижодий хамкорлик кирралари.// О'zbeki ili va adabiyoti,2012-yil, 1-son, 14-bet.

Jomiy va Navoiyning do'stligi , ilmiy-adabiy hamkorligi haqida bugunga qadar ancha tadqiqotlar yaratilgan.Jumladan, Alisher Navoiy tavalludining 555 yilligiga bag'ishlab chop etilgan „Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy” deb nomlangan ilmiy to'plam, tojik olimlari Abdulg'ani Mirzoyevning „ Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy”monografiyasi, A'loxon Afsahzodaning Jomiy ijodiga bag'ishlangan bir qator ilmiy tadqiqotlari, Y.E.Bertelsning „ Навоий и Жомий”, A.Qayumovning „Nazm va tafakkur quyoshi”, R.Vohidovning „Ma'naviyat olamining porloq quyoshi” kitoblari, B.Valixo'jayev va M.Muhiddinovlarning ilmiy maqolalari bu ikki yirik olim orasidagi yaqin munosabat, haqiqiy do'stlik va hamkorlikka oid muhim ma'lumotlar berilishi bilan birga , Mavlono Jomiy hayoti, ilmiy va adabiy faoliyatining muhim qirralari yoritib beriladi.

Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy Xuroson ilmiy-adabiy muhiti, madaniy hayotida bir –birlarini qo'llab-quvvatlab turuvchi, hamfikir, hamaqida, hamkor zotlar edilar.

Bu ikki dilbar shaxsning tanishuvlari sanasi haqida fanda aniq ma'lumot uchramaydi. A.Mirzoyev „ Xamsat ul -mutahayyirin”dagi ba'zi ishoralarga ko'ra bu hodisa Sulton Abusaid Mirzo hukmronligi davrida (1451-1469) Hirotida sodir bo'lgan ,deydi ¹⁷. B.Valixo'jayev esa Jomiy va Navoiyning tanishuvlari aynan Samarqand safarlarida yuz bergan bo'lishi mumkin ,degan mulohazani bayon etadi¹⁸. Olimning ta'kidlashicha, Abdurahmon Jomiy to'rt marta Samarqandda bo'lgan. U birinchi marta Mirzo Ulug'bek davrida , ya'ni 1436 yilda bu shaharga keladi.

Yosh Jomiy Ulug'bek madrasasining talabasi sifatida o'qishni davom ettirib, zamonaning mashhur olimlari Qozizoda Rumiyan, Ulug'bekning o'zidan darslar tinglagan. Ana shu vaqtda u Xoja Fazlulloh Abullaysiydan ham ta'lim olgan.Ma'lumki, Navoiy ham 1464-1469 yillarda Samarqandda yashagan, bu yerning yirik ulamolari Xoja Ubaydulloh Ahrori Valiy, Xoja Fazlulloh Abullaysiylardan ta'lim olgan, ularning „ farzandim” , degan iltifotlariga sazovor

¹⁷ Мирзоев А. Алишер Навоий ва Абдурахмон Жомий. С.8.

¹⁸ Валихужаев Б.Навоийнинг Самарқанддаги кадамжолари.// Мулоқот,1991,2-сон, 23-31-бетлар.

bo'lgan. Navoiy ham Jomiy ham 1469 yildan e'tiboran Hirotida muqim bo'lganlar. Ayni jihatdan, B.Valixo'jayevning bu uchrashuv ularning madrasasida ta'lim olgan yillarida yoki osha paytda ko'p serqatnov bo'lmagan karvon yo'llarida sodir bo'lgan bo'lishi mumkin, degan xulosasi haqiqatga yaqin ko'rinadi. Y.E.Bertels shoirlar uchrashuvi 1469 yildan keyin Hirotida sodir bo'lgan, degan fikrini shunday mantiqiy asoslaydi: „Navoiydek she'riyat bilimdoni va oshig'ining Hirotida uzoq yillar yashar ekan, bu shaharning eng mashhur shoiri bilan shaxsan tanishishga intilmaganiga ishonish qiyin”¹⁹.

Navoiy Sulton Husayn Boyqaro taklifi bilan Samarqanddan Hirotga kelishi hamono davlatning mas'uliyatli lavozimlaridan birini egallaydi.

Jomiy esa Alisher Navoiyni va uning bosh vazir sifatida olib borgan faoliyatini Yusuf payg'ambar faoliyati bilan tenglashtiradi.

Muborak bar shahu arkoni davlat,

G'azanfar haybatoni shersavlat!

Ba taxis on javonmarde k-sh az der,

*Nasab chun nom boshad sher bar sher....*²⁰

Jomiy Navoiyni ham zohiran, ham aqlu kamol ila botinan Yusuf payg'ambarga qiyos qilsa, Alisher Navoiy ustози Jomiyning ilm va kashfu karomat ila mukarram bo'lgan zot- Hizr alayhissalomga o'xshatadi.

Navoiyning Samarqandda kechirgan hayoti va faoliyatini chuqur o'rgangan olim akademik V.Abdullayev shoirning bu yerda falsafa, tarix, astronomiya, geografiyani yaxshi o'rganganligi, Ibn Sino, Forobiy, Abulfazl Muhammad Samarqandiy, Maqdisiy, Yoqut Hamaviy, Ibn Xavqal, Narshaxiy, Shamsiddin Samarqandiy (XIII) kabilarning poetika, falsafa, tarix, geografiya, astronomiya va riyozatga oid bo'lgan kitoblarini hamda Ulug'bek, Nizomiy Aruziy Samarqandiy, Yusuf Sakkokiy Xorazmiy, Sa'diddin Taftazoniy, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi Samarqandiyning asarlarini o'qiganligini ta'kidlab o'tadi²¹. Ma'lum bo'ladiki,

¹⁹Бертелс Е.Э. Навои.М.-Л.,1948.С.148.

²⁰ Ko'rsatilgan maqola. 16-bet

²¹Абдуллаев В.Танланган асарлар. Икки Жилдлик.1-жилд. Тошкент, 2002. 40-49-бетлар.

Navoiy Samarqandda kechirgan to'rt-besh yillik hayoti davomida asosan aniq va tabiiy fanlarni o'rganishga zo'r ishtiyoq ko'rsatadi. Ilmi irfonni esa keyinchalik, Hirotga qaytgach, Hazrat Jomiy bilan uzluksiz suhbatlarda, yaqin aloqada bo'lib takomilga yetkazadi.

Navoiy 1469 yilda Hirotga qaytib, Jomiy bilan nihoyatda yaqin aloqada bo'ldi, uning ma'rifiy suhbatlaridan bahramand bo'ldi va yetti yil davomida uning tasavvufiy dunyoqarashini kamolot darajasiga yetkazgach, 1476 yilda tariqatga rasman kirdi. Ikki yuksak salohiyat, o'tkir tafakkur va o'ta nozik madaniyat sohibi bo'lmish bu nazokatli shaxslarni ilmi irfon yanada yaqinlashtirdi.

Navoiy ham ustoz, ham do'sti, ham maslakdoshi Jomiyning juda e'zozlagan. Shoir ustoziga bag'ishlab „Xamsat ul-mutahayyirin“ („Hayratlanganlar hayrati“) asarini yozgan.

Aslini olganda, mavlono Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiyning do'stona munosabatlari alohida e'tibor va e'tirofga molik hodisa hisoblanadi. „**Xamsat ul-mutahayyirin**“ (*Besh hayrat*) asarining mavlono Jomiyga bag'ishlab bitilganligi buni yaqqol tasdiqlab turadi. Asarda mutafakkir va mutasavvif sifatida tasvirlangan Jomiy va Navoiy o'rtasidagi do'stona hamda ijodiy munosabatlar haqida muxtasar to'xtalish lozim.²²

Alisher Navoiy Jomiyning „Nurani Maxdum“ deb atagan. Akademik Aziz Qayumov qayd etganidek: „ Alisher tug'ilgan yili Abdurahmon Jomiy 27 yoshli yigit edi. Alisher Navoiy shoir sifatida tanilganda, Jomiy o'z davrining mashhur shoiri va mutafakkiri sifatida dong taratgan mo'ysafid edi. Navoiy ustozini ta'riflab juda ko'p she'rlar bitgan va o'zining eng yaqin ustoz, do'sti, maslahatgo'yi deb bilgan “.

Alisher Navoiy „Xamsat ul –mutahayyirin“ asari avvalida „ ... *chun bu risola xayolg'a keldi, binosin bir muqaddima va uch maqola va bir xotimag'a qo'yuldi va besh da'fa so'zgakim, o'qig'uvchilarg'a ko'p mujribi tahayyur erdi* „ *Xamsat ul*

²²Акмал Саидов. „Хамсат ул-мутахаййирин“ рус тилида.// Туркистон, 2016-йил, 10-феврал, 12-сон.

mutahayyirin” tasmiya qilindi” – deb ta’kidlagani bejiz emas. Asar muqaddimasida Jomiyning nasabi, tug’ilishi, tarbiyalanishi, tahsil olishi, olim hamda shoir bo’lib yetishishi haqida so’z boradi. Birinchi maqolat 15 lavhadan iborat bo’lib, Jomiyning ma’naviy dunyosi, badiiy ijod yuzasidan yuritgan bahs-suhbatlari qalamga olingan. Ikkinchi maqolatda Navoiy va Jomiy yozishmalaridan namunalar keltirilgan. Uchinchi maqolat Navoiy va Jomiyning ijodiy hamkorligi, tasavvufga oid asarlar xususidagi suhbat hamda tavsiyalarga bag’ishlangan. Xotimada Jomiyning vafoti tafsilotlari bayon etilgan.

„Xamsat ul-mutahayyirin” ning ilk sahifasida Navoiy ustoz, piri, do’sti va bir umrlik hammaslagi bo’lmish Jomiy shaxsiga bergan ta’rifi: *Oliy hazrati valoyat manqibati koshifi asrori rabboniy va olimi rumuz va asrori samadoniy al-ulamo varsah al-anbiyo*²³ *qismat koxida ilmi o’n olamcha erkanlardin iztiror ortuqroq taraka olg’on va ulamo ummatiga k-anbiyoyi isroil komida yuz yigirma to’rt ming harif arosida o’zini tariqat elining muqtado va imomi, sharif xaylining mujtahid va shayx ul-islomi, ya’ni Nur ul-haq vad-din, kahf ul-islom va muslimiyna shayxuno*²⁴ *va Mavlono Abdurahmon ul-Jomiy (quddisa ollohu sirrahu va navvara ollohu marqadahu)*²⁵ ga ko’zimiz tushadi. Bu ta’riflardan Navoiyning ustoziga bo’lgan yuksak hurmati, uning ijodi va shaxsiga bo’lgan cheksiz muhabbati yaqqol ko’rinib turibdi. Bu ikki ulug’ zotlar har qanday kishi, har qaysi ustoz –shogird orzu qiladigan munosabatda bo’lishgan.

Hazrat Navoiy „Xamsa” ning „Hayrat ul-abror” dostonida esa ustoz ta’rifida shunday baytlarni bitadi:

Zulmat etib, jam davoti aning,

Ma’ni o’lub obi hayoti aning.

Qatrasidin kimki bo’lub komyob,

²³ a.: valiylikning oliy hazrati, Olloh sirlarini kashf etuvchisi, yashirin ishoralar va alohnda sirlar olimi, payg’ambarlar davomchisi (sifatidagi) alloma.

²⁴ ya’ni, tariqat elining peshvosi va imomi, muqaddas guruhning serg’ayrat arbobi va shayx ul-islomi, ya’ni haq va dinning nuri, islom va musulmonlarning sig’inadigan joyi, shayximiz.

²⁵ a.: Olloh sirrini muqaddas saqlasin va go’rini yorug’ qilsin.

Umri muabbad qilibon iktisob.

*Nazmi aqolimi jahonni tutub,
Nasri dag'i kishvari jonni tutub,
Fayzi gadovu shah aro muntashir,
Xizmatig'a shohu gado muftaxir...*²⁶

Misralar mazmunidan Abdurahmon Jomiy buyuk ijodkor bo'lishi bilan birga ulug' donishmand va mutafakkir shaxs bo'lganini anglaymiz. „Xamsat ul-mautahayyirin“ asari muqaddima, uch maqolat va xotimadan iborat. Asarning har bir qismi muayyan maqsadni yoritishga mo'ljallangan. *Muqaddimada* Mavlono Jomiyning nasl-nasabi, tutgan yo'li va hazrat Navoiy u kishining xizmatiga kirganligi haqida ma'lumotlar beriladi. Navoiy Jomiyning muftahidlar avlodiga mansub deydi: *Alarning oliy nasablari imom ul-mujtahidin*²⁷ *Muhammad binni Hasan binni Abdulloh binni Tovus binni Hurmuz Shayboniy*²⁸ *g'a borurkim, Hurmuz bani Shaybon qabilasining maliki ermishkim, Bag'dodda saltanat qilibdur.* Tasavvufning shayxi va taniqli shoirlaridan biri Ahmadi Jom ustozning katta otasi bo'lgani va Jomda mashhur bo'lganligi bois ham taxallusi shundan Jomiy ekanligini ta'kidlaydi.

Shoirning otasi Nizomiddin Ahmad esa din va shariat ilmining peshvolaridan bo'lgan. Ilk tahsilni Jomiy otasidan olgan, go'daklikdayoq o'qishni o'rgangan. Navoiyning qayd qilishicha, u „to'rt yo besh yoshlarida“ maktabga qatnay boshlagan. Lekin ko'p o'tmay Jomiyning oilasi Jomdan Hirotga ko'chib kelishadi. Buning sababini Navoiy shunday izohlaydi: *“Bori kichik yoshidin shabob ahdining avoyilig'achakim (yigitlik davrining boshlanishigacha), Jom viloyatida ermishlar – alarg'a foyda yetkurur kishi oz topilg'on jihatidin:*

²⁶ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар туплами. Йигирма жилдлик. 7-жилд. -Тошкент. 1991. 53-бет.

²⁷ а.: муftahidlar (ya'ni, diniy qoidalarni o'zgartib, Yangi mazhab tuzuvchilar) peshvosi.

²⁸ Navoiy Jomiy nasabini Shaybon nomli qabilaning maliklaridan Muhammad binni Hasan binni Abdulloh binni Tovus binni Xurmuz Shayboniy deb ko'rsatadi.

Quyosh ul nav'ki mag'rib sori,

Yo Nabi uylaki Yasrib sori,

shahrga azimat qilibdurlar...". Har bir ish va hunarni kamolga yetkazish, iqtidorni to'la ro'yobga chiqarishga rag'batlantiruvchi, ilm va ijodni qo'llab-quvvatlash bilan tanilgan Hirot Jomiyning quchoq ochib qarshilaydi.

Birinchi maqolatda Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy o'rtasida bo'lib o'tgan suhbatlar hamda qiziqarli voqealar keltiriladi. Voqealardan biri quyidagichadir: bir majlisda Udiy ismli hofiz Xoja Hasan Dehlaviyning g'azalini kuylaydi. Shunda g'azalning:

Misoli qatrayi boron sirishki man ham dur shud,

Chunin asar dihad, ore, to'lui chun tu Suhayle –

„yomg'ir tomchisi kabi mening ham ko'zyoshlarim durga aylandi, haqiqatan, sening suhayl yulduziday chiqishing shunday ta'sirlantiradi" – baytiga kelganda majlis ahli misradagi "dur" so'zidan ko'ra ko'zyoshni qon (xun)ga o'xshatish badiiy ta'sirchanlikni oshiradi, deyishadi. Hamma shunday fikr aytib, Navoiyning ham fikrini bilishga qiziqadilar. Shoir g'azaldagi ifodaning o'zi chiroyli, lekin buni isbotlab berolmayman, kelinglar, bir kishini hakam qilamiz, u to'g'ri fikrni aytsin, garov o'ynaymiz, deydi. Hamma rozi bo'ladi va g'azal bayti Abdurahmon Jomiyga yuboriladi. Baytdagi "dur" yoki "xun" ("qon") so'zlarining qaysi biri ma'qul ekanligini so'rashadi. Shunda Jomiy:

Suxan durr astu taalluq ba go'shi shah dorad –

"So'z – dur, shoh qulog'iga taalluqi bor" mazmunidagi bir misrani bitib yuboradi. Davra ahli javobning nozik va qisqaligidan, Navoiy va Jomiyning shu qadar hamfikir ekanligidan hayratga tushadilar. Bu voqea butun Hirotga tarqalib ketadi, majlislarda uzoq vaqt aytib yuriladi.

Yana bir voqeada bir qurilishga sarv daraxtlari kesilib olib ketilayotgani bilan bog'liq holat tilga olingan. Aravada qurilishga sarv daraxtlarining olib ketilayotganini ko'rgan Jomiy aravakashdan sarv daraxti qoldimi, nechta yog'och olib ketyapsan, deb mutoyiba bilan savol bersa, aravakash “bir yuz to'rtta” deydi. Shunda Navoiy sarv yorning qaddiga qiyosdir, “qad” so'zining adadi ham bir yuz to'rttdir deydi. Chunki “qad” – “قَد” so'zi abjad hisobida 104 raqamini hosil qiladi. Bunda 100 – 100, 4 – 4 ni bildiradi. Jomiy Navoiyning zakovatiga qoyil qoladi.

Ikkinchi maqolat mavlono Jomiy va Alisher Navoiyning o'zaro yozishgan xatlari, *uchinchi maqolatda* mavlono Jomiyning yozgan asarlari, xotimada Alisher Navoiyning Jomiy huzurida o'qigan kitob, risolalari hamda mavlono Jomiyning so'nggi yillari to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Alisher Navoiy “Xamsa” dostonlarining har birida Abdurahmon Jomiyga alohida bob bag'ishlaydi. Bu bejizga emas, albatta, chunki buyuk shoir o'z asarlarini yozish uchun piridan ma'naviy madad olib turgan. Xususan, „Saddi Iskandariy” dostoni xotimasida shunday voqea keltiriladi:

Navoiy o'z beshligi kitobxonlar tomonidan qanday baholanishini bilish uchun ustozi Abdurahmon Jomiyning huzuriga boradi va unga “Xamsa”ni taqdim etadi. Jomiy asarni birma-bir varaqlab, shoirga lutf bilan munosabatda bo'ladi va bir qo'lini shoirning yelkasiga qo'yadi. Ustoz va pir Jomiyning qo'li yelkasiga tekkach, shoir bir lahza hushini yo'qotadi va taxayyul olamiga g'arq bo'ladi: Navoiy ajoyib bir gulistonda sayr qilib yurib, bir guruh suhbatdoshlarni ko'rib qoladi. Ulardan biri shoir tomonga kelib, o'zini fors-tojik shoiri Hasan Dehlaviy deb tanishtiradi va davradagilar shoirni ko'rmoqchi ekanliklarini aytadi. Navoiy hayajon bilan davra ahliga yaqinlashadi. Hasan Dehlaviy davradagilarni Navoiyga tanishtiradi. O'rtada Nizomiy Ganjaviy, uning ikki yonida Xusrav Dehlaviy va Abdurahmon Jomiy, ularning atrofida o'tirganlar esa Firdavsiy, Unsuriy, Sa'diy, Sanoiy, Hoqoniy va Anvariylar edi:

*“... O’rtodag’i piri farruxjamol
Ki, vasfida keldi xirad nutqi lol,*

*Erur hazrati Shayx, ogoh bo’l!
Niyoz aylabon xoki dargoh bo’l.*

Davradagilar Navoiyni ko’rishlari bilan o’rinlaridan turadilar. Uning bir qo’lidan Xusrav Dehlaviy, ikkinchi qo’lidan Abdurahmon Jomiy tutib, Nizomiyning yoniga o’tqazadilar. Navoiy Nizomiyga ta’zim bajo keltirib, uning yoniga o’tiradi. Nizomiy Navoiyning “Xamsa”siga yuksak baho beradi va Jomiydan shoir haqqiga duo o’qishini so’raydi...

Shu onda Navoiy taxayyul olamidan qaytib qarasa, Jomiy qo’lini uning yelkasidan olgan va unga qarab turgan ekan. Jomiy Navoiyni ulug’ muddaoga yetishganligi bilan qutlab, Tangriga shukrona keltirishga chorlaydi.

«Xamsat ul-mutahayyirin» xotimasida Navoiy ustози Abdurahmon Jomiy xizmatida «ta’lim va istifoda» yuzidan o’qigan o’ndan ziyod kitob ro’yxatini keltiradiki, ularning aksariyati tasavvuf haqida. Bular: «sufiya mashoyix istilohila bitilgan» «Lavoeh» va «Lavome’», «SHarhi ruboiyot», «Nafahot ul-uns», Xoja Muhammad Porsoning «Qudsiya»si, Xoja Abdulloh Ansoriyning «Ilohiynoma»si va b. Mana o’sha xotimadan bir parcha: «YAna hazrati shayx-ul mashoyix faxr ul-millat vad-din Iroqiyning «Lamaot»idurkim, Hazrati Maxdum ul kitobni bu faqirg’a sabaq ayturda aytur erdilarkim, «Bu kitobni nodon va beandom tavrliq’ va nomahvor ravishliq elining ko’proq mashg’ulliq qilg’oni xavos ahlida badnom qilg’on ermishkim, ba’zi o’qimas ermishlar. Bu jihatdin bu kitobning xo’bluqlari yashurun qolg’on ermish». Asru izhor xushhollik va surur qilurlar erdi, sharh bitmagiga dog’i bu bois bo’ldi». SHuningdek, Navoiy Hujviriy, Imom Qushayriy, Suhravardiy, Imom G’azzoliy, Ibn Arabiy kabi islom allomalarining asarlarini ham puxta bilgan. Navoiyning tasavvuf bilan aloqasini belgilashda bunday faktlarga jiddiy qarash kerak. Navoiyshunoslikda xuddi shu jihat etarli darajada inobatga olinganicha yo‘q. Navoiy ijodiyotining tasavvuf bilan bog‘lanishlarini isbotlashga

tashqaridan «dalil» axtarishga ehtiyoj yo‘q: ular shoir ijodiyotining o‘zida mavjud.²⁹

Navoiy „**Majolis un-nafois**“da Jomiy haqida quyidagi ma’lumotlarni yozadi:
M a v l o n o M u h a m m a d J o m i y — Hazrat Mavlaviy Maxdumi Nuranning inisi erdi. Zohir ulumin takmil qilib erdi. Axloq va sifoti darveshona va suluk ravishi bexeshona, advor va musiqiy ilmida mohir va soyir fazliyatda komil erdi. Ul og‘og‘a inilikka loyiq va tariyqi alar tariyqi bila muvofiq erdi. Bu ruboiy alarningdurkim:

In bodaki, man be tu ba lab meoram,

Ne az pai shodiyu tarab meoram.

Zulfi siyahi tu ro ‘zi man karda siyoh,

Ro ‘zi siyahi xesh ba shab meoram.

Qabri ul hazratning manzillarida qutb us-solikin Mavlono Sa’diddin Koshg‘ariy (quddisa sirruhu)ning sufasida, aning ayog‘i sari voqe’durur.³⁰

„**Nasoyim ul-muhabbat**“ asarida esa quyidagi ma’lumotlarni uchratamiz:

Shayx ul-islom Mavlono Nuruddin Abdurrahmon Jomiy q. r.

Alar vafida xoma tili lol va til xomasi shikasta maqoldur. Yillar taqdir qililsa va qarnlar tahrir sur’ati bila bitilsa, ulcha haqqi bor. Vasflarining ado topmog‘i mutaassirdir va ta’riflarning song‘a kelmagi mutaazzir. Bu bebizoat va qalil ul-istitoatning yaqini munga sodiq va tahqiqi munga muvofiqdurki, bu ummatda alarning kamoli suvari va istikmoli ma’naviylari jome’iyati bila turamamish bo‘lg‘ay. Chun asr fuzalosidin va zamon ulamosidin kim alarning shogirdlig‘ig‘a muazzazu mumtoz va musharrafu sarafroz erdilar. Necha kishi alarning siyratu kamoloti sharhida rasoilu kutub bitibdurlar va tasonif sabt etibdurlar, arodadur. Bilay degan kishi ul jam’i ta’lifdin o‘z fahmi xurdida maxsus bo‘lur va bahra ola olur. Bu zaif dag‘i ham bu bobda «*Xamsat ul-mutahayyirin*» risolasi bitibmen. Anda filjumla gustoxlig‘ yuzidin alar zikri bila qalamni gavharnisor etibmen. Turk

²⁹Ibrohim Haqqul.Navoiyga qaytish.-Toshkent: «Fan» nashriyoti ,2007. 12-13-bet.

³⁰Alisher Navoiy. Majolis un-nafois .www.ziyouz.com kutubxonasi 14-bet.

ulusida irodat ahli va ixlos xayli ul parishon avroqdin va parokanda ajzodin ilikka olsalar va ko'z solsalar, biror nima bila olurlar va shuur hosil qila olurlar. Alar zohir yuzidin o'zlarin qutb ul-muhaqqiqin va g'avs us-solikin Mavlono Sa'd ulmillati va din Qoshg'ariy q. r. a. muridi ko'rguzurlar erdi. Ammo hamonoki Uvaysiy erdilar va hazrat Xoja Bahouddin Naqshband r. t. ruhoniyyatidin tarbiyat topib erdilar va zamon mashoyixidin Xoja Muhammad Porso q. s. muborak nazarlarig'a yetishib erdilar va Xoja Abu Nasr Porso va Xoja Muhammad Kusaviy va Mavlono Boyazid Purniy va Mavlono Muhammad Asar va Mavlono Muhammad Tabodgoniy va Shayx Shoh Ziyoratgohiy va Mavlono Muhammad Amin Ko'hisoniy va Mavlono Sa'diddin Jojarmiy q. t. a. va soyir zamon mashoyixi bila suhbat tutub erdilar va ham bu toifa holotu masoilidin barchadin bahra topib erdilar va ham bahra yetkurub erdilar. Sakson bir yoshqa yettilar va sakkiz yuz to'qson sakkizda jum'a kechasi Hirot xiyoboni boshida o'z manzillarida Tangri taolo rahmatig'a vosil bo'ldilar va alarning muxlislaridin biri munavvar marqadlari ustida oliy imorat yasab, ba'zi muridlar va shogirdlaridin ul imoratda daqoyiq fununin va haqoyiq ulumin holo dars etib, jamoati kasir toliblardin alar ruhoniyyatn barakatidin naf'i shomil va fayzi komil topadurlar va nazmu nasr tasniflaridin ellikka yaqin borki, zamon ahli andin bahramanddurlar. Nazmlaridin uch devondur.

Avvalg'i devon «*Fotihat ush-shabob*»qa mashhur va ikkinchi «*Vositat ul-iqd*»qa ma'ruf va uchunchi «*Xotimat ul-hayot*»qa mavsumki, olam ahli tilida ul nazmlardin o'zga oz nazm joriy bo'lur va masnaviydin «*Haft avrang*»dur, yetti daftar tarbiyat topibdurki, «*Tuhfat ul-ahror*»dur va «*Silsilat uzzahab*»dur va «*Yusuf va Zulayho*»dur va «*Layli va Majnun*»dir va «*Xiradnoman Iskakdariy*»dur va «*Subhat ul-ahror*»dur va «*Salomon va Absol*»dur va nasrlaridin «*Tafsir*»dur va «*Shavohid unnubuvvat*»dur va «*Nafahot ul-uns*»dur va «*Naqshi Fusus*»dur va «*Ash'iat ul-lamaot*»dur va «*Lavoeh*»dur va «*Lavome*»dur va sharhi ruboiyotdur. Chun barchasi alarning kulliyotida mastur va mazkurdur, te'dodig'a hojat emas va alarniig maoniy va nukoti andin mashhurroqdurki, biror nima sabt qilmoqqa hojat bo'lgay. Ul sababdin ixtisor qilildi. *Haq s. t. va alar ruhig'a vusul*

nuzhatgohida qiyomatqacha orom va niyozmandlarga alar asroru maoniysidin komu nashoti tamom nasib qilsun, omin yo Rabb al-olamin! [Erkaklar martabasiga yetgan orif ayollar zikri]

Shayxi buzurgvor Shayx Muhyiddin Arabiy q. s. «Futuhoti Makkiy»ning yetmish uchunchi bobida, andin so'ngraki, rijolulloh tabaqotidin ba'zini zikr qilibdur, debdurki, [biz zikr etgan bu toifadagi kishilarning barchasini rijol – erkaklar deb ataymiz. Shuningdek, ular ichida ayollar ham bor, lekin erkaklarning soni ko'p. Ba'zi kishidan so'radilar: Abdollar necha nafardirlar? Aytти: Qirq kishi. Unga aytdilar: Nega qirqta erkak demaysan? Aytти: Ular ichida ayollar ham bo'ladi]1. Shayx Abdurrahmon Sulamiy tabaqoti mashoyixiing sohibi r. t. nisvat un-obidot va niso un-orifot ahvoli zikrida alo haddihi kitobe jam' qilibdur va alardin ko'pining ahvoli sharhiya bayong'a keltirubdur.³¹

Sh e ' r:

[Agar ayollar biz aytgandek bo'lsalar, erkaklardan afzaldirlar. Quyoshning muannas ism ekanligi unga ayb emas, oyning muzakkar ism ekanligi unga faxr emas]2.

„ Saddi Iskandariy ” dostonining eng so'nggi bobida Navoiy buyuk ustozini salafi bo'lmish Hazrat Jomiyini yuksak ehtirom bilan tilga oladi:

«Zo'rlar qatoriga kiraman deb, panjaga qo'l urish bilan, u panjadan o'z panjasiga ko'p shikastlar yetkazgan kimsalar xam bo'lgan, Haddan ortiq zo'r berib kuchayishlari natijasida ularning bilaklari tirsaklaridan chiqib ham ketgan».

«Har bir ochilmagan qulfni ochishda buyuk kishilarning duosi kalit bo'la oladi». Tasdir san'ati (bayt niyoz suzi bilan boshlanib, o'sha so'z bilan tugagan)dan foydalanib yaratilgan bu baytning mazmuni: «Orzu-istagi bor kishilar kirsin!» degan so'z eshitildi, buni eshitgach, umid bilan kirdim».

«U kishining joyi xilvat emas, yuksak ostonani eslatar, o'zlari esa, xilvatda — yolg'iz o'tiruvchiga emas, Jabroil farishtaga o'xshar edilar. Uni [Jabroilni] muqaddas nur ravshan aylagan, ya'ni u nurdan yaratilgan bo'lsa, buning

³¹Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat .www.ziyouz.com kutubxonasi 234

[Jomiyning] soʻzlaridan muqaddas sirlar ayon boʻlar edi. Jabroilni eslatadigan darajada toʻliq aql egasidir. Men shunday bir haramga mahram boʻldimki, yoʻq u haram emas, yorugʻlik va poklik olami edi».

Keyingi baytda «Ularning bu yozganlari yuzaga chiqqanda, siyoh bilan yozilgan bu kabi qora-qura narsalarning olamda boʻlishiga hayratlanasan. Ularning yozganini kim oʻqisa, xuddi qorongʻi kechada qolgandek mashaqqatga tushadi. U shunday zulmatki, odam ichay desa, obi hayot yoʻq, u shunday tunki, unda oftob nuridan nishona ham koʻrinmaydi. Unday shoirlar dunyoga eng muattar mushk sepdik, deb maqtanganlaridan ham mushklari koʻngilni qora va koʻzni xira qiladi, xolos. Lekin bu oʻrmonda ikkita mard sher [Nizomiy bilan Xusrav] bor bu dengiz ichida ikkita botir nahang [Nizomiy va Xusrav] boʻlib, bu oʻrmonga kirish uchun xuddi oʻshanday jangovar sheru, bu dengizga tushish uchun oʻshanday dilovar nahang boʻlmoq kerak», deyiladi.

„Piri koshif“ „Piri ravshanzamir“ deya Jomiy nazarda tutilgan.

«Asarim bir kema kabi maʼrifat daryosi [Jomiy] tomon yoʻnalgach, ulugʻ dars (Jomiy) oʻz muborak qoʻlini bu daftarlarga uzatdi», «Qanday yengki, uni osmonga tashlasa, koʻkning qiyshiq yuzini bukib yuborar edi» deyiladi.

Abdurahmon Jomiy hayoti va ijodiyoti dunyoning qator mamlakatlarida koʻplab olimlar tomonidan oʻrganilgan, asarlaridan namunalar Abdurahmon Jomiy ijodiyoti muhiblari taniqli olimlar P.Shamsiev, SH.Shomuhamedov, A.Hayitmetov, A.Qayumov, N.Mallaev, B.Valixoʻjaev, R.Vohidov, S.Gʻanieva, H.Homidiy va boshqalarning maqola, risolalaridan, shuningdek, alohida ilmiy toʻplamlardan yaxshi xabardordirlar, deb oʻylaymiz. Oʻzbek kitobxoni necha oʻn yillardan buyon Jomiy adabiy merosidan saralangan lirik sheʼrlar, ayrim doston (baʼzilar parcha h olida) va nasriy asarlarni ona tilida oʻqishga muvaffaq boʻlishgan.

Hazrat Jomiyning maʼno duru gavharlari bilan toʻlib-toshgan ijod xazinasi bizga nechogʻlik qadrli boʻlsa, uning Alisher Navoiy bilan doʻstligi, ustoz-shogirdligi shu darajada eʼtiborli va ehtiromlidir. Bu-xalqlar, adabiyotlar, ilm-fan, madaniyatlar tarixida nihoyatda siyrak uchraydigan hodisa. Jomiy va Navoiyga oʻxshab dunyoqarashi – dunyoqarashiga, shaxsiyati – shaxsiyatiga, maslagi –

maslagiga bog'lanib, ijodiyoti va mahorati o'zaro uyg'unlik kasb etgan ikki millat, ikki adabiyot vakilini tasavvurga keltirish qiyin. Asarlarida Navoiy Jomiy ta'rifida, Jomiy Navoiy madhida so'z yuritar ekan, ularning har ikkalasi ham go'yo bir tafakkur iqlimida nafas olib, bir dard va shodlik gulshanida kezib ulug' iste'dod, mislsiz badiiy ixtirolarni sharaflayotganga o'xshaydi.

Sharq mumtoz she'riyati dunyo badiiy tafakkurining o'z jozibasiga sohib, qudratli markazlaridan biri. Jahonga shuhrat taratgan ulug' shoir-san'atkorlarning aksariyati Sharq she'riyati namoyandalari edi. Mavlono Nuriddin Abdurahmon Jomiy ular davrasida alohida mavqe va e'tiborga ega hisoblanadi.

Jomiy – shoir, adib, olim, musiqashunos, adabiyotshunos, muarrix, faylasuf, mutasavvif. Hazrat Jomiy keng qamrovli ijodiyotida Rudakiydan boshlab to Hofiz va Kamol Xo'jandiygacha bo'lgan so'z san'atkorlari an'analarini ijodiy davom ettirib, fors-tojik she'riyatini yangi pog'onaga ko'targan edi. Jomiydan keyin badiiy ijod tajribasini teran ilm va irfon, qoyaday sarbaland butun shaxsiyatdan ayri holda tasavvur qilish mumkin bo'lmay qolgandi.

Asrdosh va izdoshlarning Abdurahmon Jomiyga bergan ta'rif, tavsif va baholari bir joyga jamlansa, nainki o'z zamonida, undan keyingi davrlarda ham Jomiyga teng, Jomiyning joyini egallashga munosib Shaxs tavallud topmagan, degan xulosaga kelish shubhasizdir. Jomiy shu qadar benazir, shu darajada noyob shaxsiyat. Alisher Navoiy ustozining sha'ni-shavkatini ulug'lovchi mana bunday so'zlarni aytganda to'la haq edi:

*Yo Rab, bu maoniy durrining ummoni,
Bu donishu fazl gavharining koni.
Kim aylading oni olam ahli joni,
Olam elig'a bu jonni tut arzoniy.*

O'z navbatida Jomiy ham Navoiy ijodi haqida ma'lumot qoldirgan. Jumladan, „Bahoriston“ asarining yettinchi ravzasi 39 nafar shoirga bag'ishlangan bo'lib, so'nggida Navoiyga yuksak ta'rif bergan. Navoiy haqida „Bizning zamonamiz

bu sohibdavlatvujudi ila musharrafdir. U o'z martabasi, ulug'ligi va shohga yaqinligi va shuningdek Olloh ato etgan va o'qish o'rganish bilan orttirilgan ilmu donishi va aqlu zakovati bilan she'rlari husni kamoli uchun har qanday maqtovdan yuqori tursa-da, u o'zini past tutib, she'r ahli jamoasiga qo'shildi va boshqalarga ham pardani oradan ko'tarib, she'riyat yo'lini ochib berdi, deyiladi.

Jomiy Turkistonni “ka’bai maqsud” (bunda albatta Yassaviy, Bahovuddin Naqshband, Xoja Ahror kabi tariqat pirlari ham nazarga olingan) deb ta’riflagan edi:

Jomy, az xoki Xuroson chy kuny azmi Hijoz,

Chun turo ka’bai maqsud ba Turkiston ast.

Xullas, Jomiy bilimini takomillashtirish uchun Samarqandga yo’l oladi. Ulug’bek madrasasida o’qishni davom ettiradi. Umumiy ma’lumotlarga ko’ra, mashhur qonunshunos olim xoja Fazlulloh Abulays, buyuk munajjim Qozizoda Rumiy yosh tolibi ilmning qobiliyati va zakovatiga yuqori baho beradilar. Sulton Ulug’bek huzuridagi bir yig’inda Qozizoda Rumiy “*Jomiy kabi baland iste’dodli yigit hanuzgacha Amuning nari yog’idan kelmagan edi*”, degan ekan. Samarqand hayoti, Samarqand ilmiy-adabiy muhiti Jomiyning dilida o’chmas iz qoldirgandi. Samarqand uning ilmiga ilm qo’shib, insoniy fazilatlarining boyishi va teranlashuviga erkinlik bergandi. Shu o’rinda bir narsani eslatib o’tish kerakki o’xshaydi. Samarqandda ham, keyinroq Hirotda ham bir necha marotaba Jomiyni saroy xizmatiga taklif qilishadi. Shoir esa bu taklif va iltifotlarni qat’iyan rad etadi. Chunki u o’zining tarixiy vazifasi va burchini bekami ko’st ado aylash, vijdon xotirjamligi, qalb hurriyati, fikr erkinligini saqlab qolish uchun ilmdan, adabiyotdan o’zga bir “maydon”ni tasavvur qila olmasdi. Bu esa ilm, ijod, san’at ahli uchun eng asosiy narsa.

Alisher Navoiy ustoz Jomiyni o’ziga pir qilib oladi va uning hayoti oxirigacha oralaridagi samimiy do’stlikka sadoqatni saqlagan. «Jomiy va Navoiy» majmuasining noshiri mashhur matnshunos olim Porso Shamsiyev shu majmua

muqaddimasida yozgan edilar: «*Chin insoniy xislatlardan sabot, matonat, g'ayrat, tolmas mehnatkashlik bu ikki do'stning mushtarak xususiyatlari bo'lib qoldi. Bu mushtarak xususiyat ulardagi buyuk ijodiy kuch va mahoratning deyarli bir mezonda borganligida ko'rinadi. Jomiy biror asar yozsa, birinchi galda Navoiyga taqdim etar, kerak miqdorda isloh etishni, kamchilik va nuqsonlarni ko'rsatib berishni talab etar edi. Navoiy Jomiyini o'ziga madadkor, qiynalganida mushkullarini hal qiluvchi va ishlarga rag'batlantiruvchi ulug' homiy va murabbiy deb bilar edi*».³²

Bu ikki ulug' siymolar bir-birlarining tashabbuslari bilan asarlar yozar, bir birlariga o'z asarlarida madhiyalar bitar edilar.

Jomiy o'zining ko'p vaqtini do'stlari bilan o'qish, takror va takror o'qish, sharhlash bilan o'tkazadi. U dastlab Hirotida asosiy Jome' masjidi yonida yashaydi, ammo keyin shahar chetida joylashgan Xiyobon degan joyda yashaydi va : „ Bizlar tabiatimizga ko'ra sahroviy kishilar, qishloqilarmiz”,- deb ko'p takrorlar edi. Jomiy har kuni shom namozidan keyin biroz ko'ngil yozish uchun huzuriga kelganlar oldiga chiqardi. Suhbatdan keyin ruhiy mashqlar bilan shug'ullanar, mudrab olgach, subhidamdan ancha ilgari yangi kunni boshlar edi. U tabiatan ziyrak va hozirjavob kishi bo'lsa-da, suhbatlarda hech kimning ra'yini qaytarmas, ko'proq sukut saqlar va gapga aralashishni yoqtirmas edi.³³

Abdurahmon Jomiy haqida Zahiriddin Muhammad Bobur ham o'z fikrlarini bayon etgan. Boburnoma'da XV asr Hirot adabiy muhitining yana bir ulkan vakili Abdurahmon Jomiy bilan bog'liq o'rinlarga e'tiborimizni qaratsak: “...*Mavlono Abdurahmon Jomiy edikim, zohir va botin ulumida ul zamonda ul miqdor kishi yo'q edi. She'ri xud ma'lumdir. Mulloning janobi andin oliyroqdurkim, ta'rifqa ehtiyoj bo'lg'ay*” .

³² Porso Shamsiyev. Ulug' do'stlik lavhalaridan. Jomiy va Navoiy (to'plam). –Toshkent: «Fan»,1966,20-bet.

³³Бертельс Е.Э. Навоий.Монография./ Таржимон Мирзаев И.К.-Т.: Tafakkur qanoti, 2015. 180-бет.

Bu e'tirofdan Mirzo Boburning Jomiy ijodiga va shaxsiga bo'lgan hurmati, e'tiqodi Navoiydan kam bo'lmaganligini ko'rishimiz mumkin. Mirzo Boburning o'zi ta'kidlaganidek „Hirot adabiy muhitining *“saromadi va sardaftari”* Mavlono Abdurahmon Jomiyning ellikdan ortiq asarlari borligi ilmda qayd etilgan. Shoir, adib, olim, musiqashunos, adabiyotshunos, muarrix, faylasuf, mutasavvuf Jomiy ijodining serqirraligi, qamrovining kengligi ham Mirzo Boburni hayratlantirgan, havaslantirgan va o'ziga chorlagan.

„Boburnoma“ning bir necha o'rinlarida Mirzo Boburning Jomiy ijodi bilan yaxshi tanish ekanligi, asarlarining mazmun mohiyatidan yaxshi xabardorligi ko'zga tashlanadi. Xususan, 1506 yilda Xurosonga kelgan Mirzo Bobur Abdurahmon Jomiy qabrini ziyorat qiladi va shu bilan birgalikda buyuk mutafakkirning yaqin shogirdi, o'sha paytlari Abdurahmon Jomiy madrasasida yashayotgan, betob bo'lib qolgan Mullo Abdug'afur Loriyni ham borib ko'radi. Shu o'rinda „Boburnoma“ga murojaat qilsak: *“Yana Mullo Abdug'afur Loriy edi. Mavlono Abdurahmon Jomiyning ham muridi, ham shogirdi edi. Mulloning aksar musannafatini mullo qoshida o'tkarib edi. “Nafahot”qa sharh yo'sunluq bir nima bitibtur”*³⁴.

Mirzo Bobur Jomiyning shu yo'lda yozilgan „Nafahot ul-uns“, shuningdek, „Bahoriston“ asarlari bilan yaxshi tanish bo'lgani holda, shogirdi Abdug'afur Loriyning o'z ustoziga asariga yozgan sharhi – „Takmila bar „Nafahot ul-uns“ („Nafahot ul-uns“ga qo'shimcha) haqida ham ma'lumotga ega bo'lgan. Yana xuddi shunday bir misolni Alisher Navoiyga bag'ishlangan sahifalarda ham ko'rish mumkin. „Boburnoma“da Alisher Navoiy qalamiga mansub asarlarni birma–bir sanab turib: *“Ul jumladin, insholarini Mavlono Abdurahmon Jomiyga taqlid qilib*

³⁴ Bobur .Boburnoma.-Toshkent: Yulduzcha nashriyoti, 1989 y, 150-bet.

jam' qilibtur. Hosila kalom, har kimga har ish uchun har xatkim bitibtur, yig'ishtiribtur", ³⁵-deydi.

Bu ma'lumotdan ham ko'rinib turibdiki, Bobur Jomiyning forscha ruq'alaridan, ya'ni "Munshaot" asaridan ham yaxshi xabardor bo'lgan. „Boburnoma“da Abdurahmon Jomiyning ijodkor sifatidagi estetik tamoyilini, adabiy qarashlarini yaqqol ko'rsatadigan bir ma'lumot bor. Aslida bu ma'lumot Hirot shoirlaridan biri Shayxim Suxayliyga bag'ishlangan o'rinda keltirilgan: *“Suxayliy” taxallus qilur uchun Shayxim Suxayliy derlar edi. Bir tavr she'r aytur edi. Qo'rqqudik alfoz va maoniy darj qilur edi. Aning abyotidin bir budur:*

*Shabi g'am gird-bodi oham az jo burd gardunro.
Furo' burd ajdahoi sayli ashkam rub'i maskunro.*

(Mazmuni: *G'am kechasi ohimning quyuni osmonni o'rnidan qo'zg'atdi,
Ko'z yoshim selining ajdahosi yer yuzini yutib yubordi.*)

Mashhurdurkum, bir qatla bu baytni Mavlono Abdurahmon Jomiy xizmatida o'qubtur. Mavlono aytibdurkim: “Mirzo, she'r aytasiz yo odam qo'rqutasiz?”

Biz ushbu parcha orqali Abdurahmon Jomiy shaxsidagi bag'rikenglik, ustozga xos ma'naviyat, madaniyatning yuksakligi, muomalada mutoyibaga moyillik xususiyatlarini ko'rishimiz mumkin.

Ilmi badi'adan mubolag'a san'atining tabiatini barchamiz yaxshi bilsakda, Mirzo Bobur kabi *“bayoni voqeini... rost bitilgay”* tamoyiliga amal qiladigan realist ijodkorlar mubolag'ali tasvirni ham voqelikda mavjud bo'lish imkoni bor yo yo'qligiga e'tibor qaratadilar, me'yorni unutmaydilar.

Xulosa qilib aytganda, “Boburnoma”da Abdurahmon Jomiy ijodiga maxsus to'xtalinmagan bo'lsada, yuqorida keltirilgan muxtasar ma'lumotlarning o'zidayoq Mirzo Boburning Jomiy adabiy-ilmiy merosiga, shaxsiyatiga bo'lgan cheksiz hurmati va e'tiqodini ko'rish mumkin. Shu bilan birga bu ma'lumotlar bugungi

³⁵ Ko'rsatilgan adabiyot. 154-bet.

kun kitobxonini Abdurahmon Jomiydek buyuk mutafakkirning insoniy va ijodiy dahosiga yaqinlashtiradi.³⁶

Abdurahmon Jomiy 1492- yili shamollash natijasida xastalanib, 78 yoshida hayot bilan vidolashgan. Uning dafn marosimini Navoiy boshqarib, podshoh Husayn Boyqaro esa mamlakatda bir yil motam e'lon qildi.

Jomiydek ulug' va betimsol zotlarning vafoti – hayotdagi eng og'ir ayriliq, ulkan yo'qotishdir. Jomiy singari shaxslarning qabriga jasad bilan birga boshqa hech qachon topib, hech vaqt qaytarib bo'lmas ma'no va tafakkur maxzani ham dafn etiladi. Ularning hayotdagi o'rni ham, ma'naviy mavqei ham o'lgan kunidan boshlab g'oyatda aniq bilinadi. Chunki ular yetgan tafakkur yuksakligiga o'zga birov yetolmaydi. Hirot Hirot bo'lib Jomiyning buyuk hijron ma'rakasini kam ko'rgan bo'lsa kerak. Alisher Navoiyning yozishicha, Xurosonu Hirot ahli butun yil mobaynida motam tutadi. So'ng yil oshi beriladi. Bu ma'rakaga ham Husayn Boyqaro bosh bo'lib, uni e'zozu ehtirom ila o'tkazadi. Qabr boshida hashamatli maqbara qurilib, maxsus xodimlar tayinlanadi. Unga atab ko'pgina shoirlar, shu jumladan Navoiy ham, qayg'uli marsiyalar bitishdi.

Navoiy marsiyasida Jomiy vafotining tarixi "Kashfi asrori iloh" ("Ilohiy sirlar kashfi") degan so'zlardan (hijriy 898, melodiy 1492-yil) chiqarilgan edi.

Jomiy o'zining "*Lujjatul-asror*" qasidasida so'fiy xulq-axloqi, inson tarbiyasi haqida gap borganda ta'magirlikni qoralab, qanoatli kishilarning oliyjanobliklarini, ularning ma'naviy jihatdan podshoh va vazirlardan ham ustun ekanliklarini madh etib, quyidagi satrlarni bitgan edi:

*Tome'oya az bahri gu'ma peshi har xas sar nihad,
Qone'onro xanda bar shohu vaziri kishvar ast.*

Mazmuni: *Ta'magirlar bir luqma uchun boshini xasga qo'yishga tayyor,
Qanoatchilar esa mamlakat shohi va vaziri ustidan ham kula oladi.*

³⁶Yulduz Karimova, Sohib Boysinov. Mirzo Bobur Abdurahmon Jomiy haqida. **Xurshid Davron kutubxonasi**. www.kh-davron.uz.

Shoir fikricha, inson halol va pok yashashi, buning uchun esa u bir kasbga ega bo'lishi, o'z mehnati hisobiga kun ko'rishi zarur.

Navoiyning Jomiyga, Jomiyning Navoiyga qalb yaqinligi, mehr-muhabbati, ishonchi qanday bo'lgan bo'lsa, dawl etmasdan ularga xuddi o'shandoq o'rganish, bir yoqlama, mayda yoki havoyi fikr-qarashlardan qutulib, haqiqatni so'zlash lozim. Jomiy ijodiyotini o'qib-o'rganmay, Navoiy sha'niga madhiya to'qish tarixiy, hayotiy, badiiy haqiqatga qanchalik zid bo'lsa, Navoiy dahosining kuch-quvvatini his qilmay, ijodiyotining mohiyat olamiga kirib bormay Jomiyning Navoiyga ta'siri xususida mubohasa boshlash shunchalik bema'nilikdir. Biz istaymizmi, istamaymizmi, Navoiy Jomiyga, Jomiy Navoiyga behad yaqin – shaxsiyatda ham, ijodiyotda ham. Bunga iqrar bo'lish uchun fahm-farosati joyida kishiga birgina kitob – “Xamsat ul-mutahayyirin”ni o'qib, mag'zini anglashga erishmoq kifoya.

Ilm-ma'rifatli xalq kimni sevis, kimlarga ishonish, nimani ardoqlash, nimaga intilishni bilishda unchalik xato qilmaydi. Abdurahmon Jomiyning ilmiy-adabiy merosi qadim-qadimdan o'zbek xalqini qiziqtirgan, o'qib-o'rganishga ishtiyoq uyg'otib kelgan. O'n beshinchi va undan keyingi asrlarda adabiyotda nom qozongan biror bir shoirimiz yo'qki, Jomiy she'riyat maktabidan saboq olmagan bo'lsin. Bu – to'xtab qolmaydigan jarayon. Bu – mahdudlik, yakravlik, har turli tovlamachilikdan hamisha g'olib chiqadigan intilish. Xullas, Hazrat Jomiyning “Jahonda kitobdin yaxshi yor bo'lmas”, degan gaplari yana bir karra tasdig'ini topar, deb umid qilamiz.

Abdurahmon Jomiy aytadi:

— Hakimlar ittifoqi bo'yicha, besh narsaga, ya'ni sog'-salomatlikka, xotirjamlikka, keng rizqnasibaga, samimiy, mehribon do'stga, rohat-farog'atga ega bo'lgan odam umrini tinchlikda, shodhurramlikda kechiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Jomiy va Navoiy kurrayi zamintarixida yorqin hodisa bo'lib qolgan temuriylar davri milliy yuksalishining betimsol yo'lchi

yulduzlari edilar. XVIII asrda o'tgan Nikola-Sebastyan de Shamfor nomli fransuz faylasufi shunday so'zlarni yozib qoldirgan ekan: „ Adabiyotda ham xuddi siyosatdagiday o'z vaqtida paydo bo'lgan kishigina buyuk bo'lishi yoki juda ham bo'lmaganda chinakam ijodiy inqilob qilishi mumkin''.³⁷

XULOSA

*Chu moziy o'ttiyu mustaqbal o'rtada ermas,
Sengaki hol emas mug'tanam ne hol o'lg'ay.
Bu damni orif esang yaxshi tutki, johil ishi,
Yetishmagangavu o'tganga qiylu qol o'lg'ay.
(Alisher Navoiy, «G'aroyib us-sig'ar»dan).*

Tarix ulug' shaxslarni yaratganidek, ulug' shaxslar ham tarixni yaratadi.

Alisher Navoiy ijodi o'ziga xos hikmat bo'stonidir. O'zingizda tug'ilgan har qanday savolga javob izlab, unga murojaat qilsangiz, ahvoli ruhiyangizga mos bir hikmat topib, maqsadingiz hosil bo'lishi, ko'nglingiz taskin topishi shubhasiz. Chunki ko'pni ko'rgan donishmand shoir hayotning deyarli hamma yaxshiyomonini boshidan o'tkazgan, inson fe'lining butun «o'r-u qir»ini obdan kuzatgan, tabiat va jamiyat hodisalarini teran tahlil qilgan, bir so'z bilan aytganda, odam va odam bilan bog'liq barcha narsa-tushunchalarni aql tarozisida o'lchab, ko'ngil daftariga jo etgan. Adibning hikmatga boy asarlari hayotdan olinganligi, shaklan go'zal, mazmunan teran, badiiy yuksakligi bois ham hech bir zamonda o'z ahamiyatini yo'qotmay, barcha toifaga ma'qul bo'lib kelyapti. Bundan keyin ham ularning qimmatini zarracha kamaymaydi, bil'aks tobora ortib boraveradi.

³⁷Дилором Салохий.Ижодий хамкорлик кирралари.// О'zbek tili va adabiyoti,2012-yil, 1-son, 17-bet.

Dunyo ilm-fani, tamadduni haqida soʻz borganda birinchilardan boʻlib yunon olimlari tilga olinadi. Yunon olimlari maʼlum bir zaylda Sharqqa ham oʻz taʼsirini oʻtkazgan.

Alisher Navoiy va yunon olimlari masalasi „Sharq mutasavvuf ijodkorlari va yunon falsafasi” deb nomlanadigan mavzuning bir tarmogʻi. Chunki ulugʻ salaflari Fariduddin Attor, Jaloliddin Rumiy, Abdurahmon Jomiy, shuningdek, Navoiy ijodlarida ularni uchratmaslikning iloji yoʻq.

XV asr Uygʻonish davrining asoschisi Alisher Navoiy butun hayotiy va ijodiy faoliyati davomida komillik sari intilgani va bu gʻoyani barcha asarlarida ilgari surganini yaxshi bilamiz. Shu maqsad bois ham Navoiy mutafakkir va donishmandlar shaxsiyatiga qayta-qayta murojaat qiladi.

Bitiruv malakaviy ishimizda Alisher Navoiyning nasriy asarlarida hakim va donishlar shaxsini yaratishdagi badiiy mahorati hamda munosabatlarini yoritishga harakat qildik. Yunon donishmandlari va Sharq mutafakkirlarining badiiy talqinini oʻrganishda adibning „Tarixi anbiyo va hukamo” „Nasoyim ul-muhabbat” „Majolis un-nafois” asarlariga murojaat qildik. Donishmandlarning „Xamsa” dostonlarida berilgan tasvirlarini nasriy asarlari bilan qiyoslab, keltirib oʻtdik.

Alisher Navoiyning „Tarixi anbiyo va hukamo”- „Paygʻambarlar va hakimlar tarixi” 1485-1490-yillarda yozilgan boʻlib, ikki qismdan iborat. Birinchi qismida: Odam Ato va uning avlodlaridan chiqqan paygʻambarlar tarixi va faoliyati haqida hikoya qilingan. Ikkinchi qismida: Luqmoni hakim, Fishogʻurs, Suqrot, Aflotun, Aristotolis, Jolinus, Balinos kabi hakim faylasuflar haqida muxtasar soʻz yuritilgan. Bu asarda donishmandlar badiiylik kasb etgan holda hayotiy, asosli va maʼlumotlar aniq, izchillikda berilgan. „Xamsa” dostonlarida esa ular badiiy obraz sifatida tasvirlangan.

Xulosa oʻrnida shuni aytish joizki, bu asar Navoiyning paygʻambarlar va olimlar haqida nihoyatda chuqur bilimga ega boʻlganligini koʻrsatib, xalqni ulardan bahramand boʻlishga daʼvat etadi. Huddi shu maqsadda u asarlarida yunon faylasuflarini keltiradi.

Alisher Navoiy ushbu asarni yozishidan maqsad u xalqimiz payg'ambarlar tarixini yaxshi bilishini istaydi. Asarda Sharq va G'arb faylasuflarini keltirib farzandlarni umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalanishini ko'zda tutib yaratgan. Shuningdek, yoshlar ilmi bo'lishini va bu ilmdan oqilona foydalanib, hayotini ma'rifat nurlari bilan bezashga yo'l ko'rsatadi.

Bitiruv malakaviy ishimizda o'rganilgan mavzu dolzarb bo'lib, unda berilgan ma'lumotlar yosh avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. BMI ni maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning o'quvchilariga, oiliy o'quv yurti talabalariga, adabiyot, tarix darslarida o'rganishga tavsiya qilamiz.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

I. Siyosiy adabiyotlar:

1. Каримов И.А. Истиқлол ва маънавият. – Т., Ўзбекистон, 1994.
2. Islom Karimov. O'zbekiston buyuk kelajak sari. –T,: „O'zbekiston'', 1998.
3. Каримов И.А. Юксакмаънавият – енгилмаскуч. – Т., Маънавият, 2008.
4. Vatanimizni bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta'minlash-bizning oliy maqsadimiz, Karimov Islom, T., 2009, 247b.

III. Adabiy manbalar:

1. Alisher Navoiy. "Mahbub ul-qulub". MAT. 20 tomlik, 14- tom, 1966
2. Алишер Навоий. Насойимул-мухаббат//Асарлар,-Тошкент: Ун беш томлик/ Мухаррир Азиз Каюмов.-Т.:Гафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи.
3. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар туплами. Йигирма жилдлик. 7-жилд.- Тошкент. 1991.
4. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. –Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaai jodiy uyi, 2006.-536 b.(Boqiy satrlar).
5. Жомий. Бахористон. Тошкент: Янги аср авлоди, 2007 йил, 88-бет.

6.Фаридуддин Аттор. Тазкират ул-авлиё. .-Тошкент :Гафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи.2013.-464 бет.

III. Ilmiy adabiyotlar:

1. Каримов Ғ. Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979.
2. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. X-XIX асрлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993.
3. Валихўжаев Б. Мумтоз сиймолар. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2002.
4. Qayumov A. Saddi Iskandariy. [Alisher Navoiy haqida].-Т.: ,Adabiyot va san'at nashriyoti,1975. 196 б.
5. Комилов Н. Тафаккур карвонлари.- Тошкент: Маънавият .1999,-280 б.
- 6.Абдуллаев В. Танланган асарлар. Икки Жилдлик.1-жилд. Тошкент, 2002.
7. A.Navoiy. Hikmatlar."Sharq"nashriyoti.-Toshkent:2006. (To`plovchilar: Solih Mutallibov, Ergash Ochilov)
- 8.Ibrohim Haqqul.Navoiyga qaytish.-Toshkent: «Fan» nashriyoti ,2007.
9. Komilov N. Tasavvuf.- Toshkent: Movaraunnahr- O'zbekiston, 2009.
- 10.Акмал Саидов. Атторшунослик.Фаридуддин Аттор тафаккур хазииналари.../ масъул мухаррир М.Кенжабек.- Тошкент: Sharq,2013.-384 б.
- 11.Бертельс Е.Э. Навоий.Монография./ Таржимон Мирзаев И.К.-Тошкент: Tafakkur qanoti, 2015. 180-бет.

IV.Lug'atlar:

- 1..А.Навоий асарлари изоҳли луғати. 4 томлик. 1-4-томлар. Фозилов Э.И. таҳрири остида. – Тошкент: Фан, 1983.
- 2.Фалсафа кискача изоҳли лугат/ Муаллифлар : М.Н.Абдуллаева, М.Абдурашидов ,У.Абилов ва бошк.: Масъул мухаррир : А.Жалолов.-Тошкент:

< Шарк>,2004.-384бет.

V.Maqolalar:

1. Иброхим Хаккул. Навоий ва Юнон фалсафаси. // O'zbek tili va adabiyoti, 2012, 1-son.
2. Дилором Салохий. Ижодий ҳамкорлик кирралари. // O'zbek tili va adabiyoti, 2012-yil, 1-son.
3. Валихужаев Б. Навоийнинг Самарканддаги Кадамжолари. // Мулоқот, 1991, 2-сон.
4. Акмал Саидов. „Хамсат ул-мутахаййирин“ рус тилида. // Туркистон, 2016-йил, 10-феврал, 12-сон.

VI. Elektron kitoblar:

1. Oz-oz o'rganib dono bo'lur. -Toshkent :G' afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1982..**www.ziyouz.com** kutubxonasi.
2. Alisher Navoiy. Tarixi anbiyo va hukamo .**www.ziyouz.com** kutubxonasi .
3. Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy.**www.ziyouz.com** kutubxonasi.
4. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. **www.ziyouz.com** kutubxonasi .
5. Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat .**www.ziyouz.com** kutubxonasi .
6. Yulduz Karimova, Sohib Boysinov. Mirzo Bobur Abdurahmon Jomiy haqida. **Xurshid Davron kutubxonasi. www.kh-davron.uz.**

MUNDARIJA

REJA.....	1
I.KIRISH.....	2
II. ASOSIY QISM.....	5
1. BOB. Alisher Navoiyning Yunon donishmandlari shaxsiyatlariga munosabatlari va ilmiy tadqiqotlari.....	5
1.1 Arastu timsolining yaratilishi. .	11
1.2. Suqrot timsolining yorilishi.....	21
2. BOB .Ulug' adibning zamondoshlari, Sharq donishmand –mutafakkirlari timsolini yaratishda badiiy mahorati.....	33
2. 1. Navoiy ijodida ustoz Farididdun Attorning o'rni.....	34
2.2 Shoir salafi Abdurahmon Jomiy shaxsiga munosabati	45
III.XULOSA.....	64
IV.ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	66

